

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 28 (1089), 2024-yil 8-fevral, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



BELARUS PREZIDENTI O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko 7-fevral kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O‘zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Shundan so‘ng Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko poytaxtimizdagi “Humo Arena” muz saroyiga tashrif buyurdi.

Sport majmuasida Belarus yetakchisini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Muz saroyidagi ushbu uchrashuv chuqur ramziy ma’noga ega. Aleksandr Lukashenko — xokkey ishqibozi,

Belarusda ushbu sport turini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi, o’zi ham bir necha bor muz maydoniga tushgan.

O‘zbekistonda ham sportning qishki turlari, shu jumladan, xokkeyni rivojlantirish bo’yicha katta ishlar qilinmoqda. 2019-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Humo Arena” ko’p funksiyali muz saroyi barpo qilingan edi. Toshkentning “Humo” jamoasi xalqaro va mintaqaviy musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda, xususan, Belarusning Grodno shahri “Neman” klubi bilan bellashib kelmoqda.

Tanishuv chog’ida Prezidentlar Toshkentning “Humo” va Ostonaning “Nomad” xokkey jamoalari o’rtasidagi uchrashuvni tomosha qildilar. O’yin yakunida oliy martabali mehmonlarga ularning ismlari tushirilgan xokkey kiyimi topshirildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 8-fevral kuni bo’lib o’tadi.

Tashrif dasturiga muvofiq oliy darajadagi muzokaralar o’tkazilishi, ularda O‘zbekiston va Belarus o’rtasidagi ko’p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishning amaliy jihatlarini ko’rib chiqilishi rejalashtirilgan.

O‘zaro tovar ayirboshlashni oshirish, qishloq xo’jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, kommunikatsiyalar va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish masalalari diqqat markazida bo’ladi.

Professional ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohaslarida sheriklikni rivojlantirish dasturlari ham muhokama qilinadi.

Muzokaralar yakunida ikki tomonlama hujjatlar to’plamini qabul qilish ko’zda tutilgan.

O‘ZA

Biz va dunyo

O‘zbekiston — Belarus:
VAQT SINOVIDAN O‘TGAN
DO‘STLIK VA HAMKORLIK

7-FEVRAL KUNI BELARUS PREZIDENTI
ALEKSANDR LUKASHENKONING
O‘ZBEKISTONGA RASMIY TASHRIFI
BOSHLANDI

2



Taraqqiyot yo’li

SHU SOHADA ISHLAYAPMIZMI,
UNING ICHIDA CHIN YURAKDAN YASHASH KERAK

Joriy yil 5-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yilda ta’lim, sog’liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohaslarida amalga oshirilishi lozim bo’lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig’ilishi bo’lib o’tdi.

Yig’ilishda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga to’xtalinar ekan, o’tgan yetti yilda oliy ta’limda erishilgan yutuqlar, yo’l qo’yilgan kamchiliklarni tanqidiy sarhisob qilindi. Xususan, professional ta’lim uchun mas’ul idoralar ko’payib ketgani oliy ta’lim rivojiga to’siq bo’layotganini ta’kidlandi. Ta’lim sohasi, jumladan, texnikumlar o’rtasida ish beruvchilar bilan rejali hamkorlik yo’qligi, chora-tadbirlar ijrosi ta’minlanmay kelingani tanqidiy baholandi.

E’tirozlar o’z asoslariga ega va juda o’rinli. Keyingi yetti yilda ta’lim kelajagimizning hal qiluvchi kuchi, deb qaralib, islohotlarimiz bosh mezoniga aylandi. Natijada ta’lim xalqaro standartlar asosida dunyo bilan integratsiyalashdi, qo’shma dasturlar faoliyati kirib keldi. Bugun O‘zbekistonga xorijiy universitetlar va talabalar kelishi jadal kengaymoqda. O’z navbatida, sohaga xususiy ta’lim kirib kelishi



natijasida oliy ta’limda qamrov keskin oshdi. Biroq hali raqobat muhiti yaratilmadi va sifat u qadar oshishiga erishilmadi.

Prezidentimiz bu borada haqli ravishda “Masalan, talabalarning mustaqil ishlashi

uchun muhit barcha oliygoohlarda ham birdek namunalni tashkil etilmagan. Aksariyat kollej va texnikumlar ham, oliygoohlarda ham ish beruvchilar talabi bilan hisoblashmaydi. Ayrimlarida darslik va adabiyotlar

yetishmaydi, bori ham bugungi talablarga javob bermaydi”, deb talabni qat’iy o’rtaga tashladi.

▶ Davomi 3-betda

Bugunning gapi

DAXLDORLIK ZANJIRI

Barcha mas’ullarni xalqparvarlik hissi bog’lab turadi

Bugun yurtimiz ulkan qurilish maydoniga aylandi. O’tgan qisqa davrda zamonaviy massivlar, binolar va uy-joy majmualari qad rostladi, infrastruktura rivojlanmoqda. Hatto eng olis qishloqda ham shahardagidan qolishmaydigan zamonaviy uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirilayotganini ko’rib, ko’zingiz quvnaydi.

“Uyi borning tashvishi yo’q, chunki uning boshpanasi bor” degan gapda chuqur ma’no mujassam. Topib aytilgan gap-a? Buni, ayniqsa, o’z uy-joyiga ega bo’lmagan, yillar davomida shu orzu bilan yashagan odamlar yaxshi his qiladi.

Xalqimiz uchun uy-joy vatan ichra kichik vatandir. Insonning dunyoga kelishi, shaxs sifatida kamol topishi, farzandlarni voyaga yetkazishi, milliy urf-odat va tarixiy

an’analarini davom ettirish, to’ylar qilish kabi ezgu an’analar aynan uy-joyda amalga oshiriladi. Saodatli yashamoqning mohiyati ham shu aslida.

Bugun mamlakatimiz aholisi soni 37 millionga yaqinlashib turibdi. Tabiiyki, aholi soni ko’payishi bilan uy-joyga talab ham oshib boradi.

▶ Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI
OZARBAYJON YETAKCHISINI
PREZIDENT SAYLOVI
MUVAFFAQIYATLI
O‘TKAZILGANI BILAN
TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-fevral kuni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan telefon orqali muloqotda ushbu mamlakat Prezidentligiga navbatdan tashqari saylov muvaffaqiyatli o’tkazilgani bilan samimiy tabrikladi.

Saylovchilar ishtiroki va faolligi yuqori darajada bo’lganini qayd etib, davlatimiz rahbari qardosh ozarbayjon xalqi davlat kelajagi, kuchli va gullab-yashnagan Ozarbayjon uchun ovoz berib, to’g’ri qaror qabul qilganiga ishonch bildirdi.

Subhatda O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko’rib chiqildi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni to’liq amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik ijobiy sur’atda rivojlanib borayotgani

mamnuniyat bilan qayd etildi. O’tgan yil yakunlariga ko’ra tovar ayirboshlash 30 foizga oshdi. Qo’shma Investitsiya kompaniyasi o’z ishini boshladi, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to’qimachilik, qishloq xo’jaligi, turizm va boshqa tarmoqlardagi kooperatsiya loyiholari faol amalga oshirilmoqda.

Xalqaro tuzilmalar, shu jumladan, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi. Bo’lajak tadbirlar rejasini ko’rib chiqildi.

O‘ZA

UYG‘OQ FIKR



Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo’lsa, kasblarning ichida eng sharafli o’qituvchilik va murabbiylikdir...

...Ey muhtaram yoshlar! Aziz birodarlar, o’g’ul to’ylariga sarf qilaturg’on aqchalaringizni mana shul ilm zamoni yo’liga sarf etingiz, sizdan o’g’lungizga mol meros qolmasun, balki, albatta, ilm va tarbiya meros qolsun.

Mahmudxo’ja BEHBUDIY

Nuqtayi nazar

DADIL ODIMLAR
katta maqsadlarga
erishishimizda asos bo’lmoqda

2024-yilning dastlabki oyida qilingan ishlar — xoh ichki, xoh tashqi siyosatda bo’lsin, ko’lami va mazmun-mohiyati jihatidan omadli va barakali bo’lgan avvalgi yilning mantiqiy davomi sifatida xalqimizning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamladi, deyish mumkin.

Xalqimiz har bir yilning qanday nomlanishini katta qiziqish bilan kutadi. Prezidentimizning Yangi yil bayrami tabrigida 2024-yilga “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”, deb nom berish taklif qilindi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki yurtimiz aholisining salmoqli qismi yoshlardir. Shu bois, davlatimiz rahbari 2016-yilda dastlab imzolagan hujjat ham O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonuni edi.

O’tgan vaqt davomida yoshlar manfaatiga xizmat qiluvchi yana ko’plab farmon va qarorlar, dasturlar qabul qilindi va amalga oshirildi. Shu ma’noda, 2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilgani ham, davlatimiz rahbarining yangi O‘zbekistonni ilmi, ma’rifatli yoshlar bilan quramiz, degan da’vati ham oqilona siyosatning uzviy davomidir.

▶ Davomi 5-betda

Biz va dunyo

O‘zbekiston – Belarus: VAQT SINOVIDAN O‘TGAN DO‘STLIK VA HAMKORLIK

1993-yil yanvar oyida ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon o‘tgan o‘ttiz yil davomida ikki tomonlama hamkorlik o‘zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillari asosida izchil rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston va Belarus xalqaro maydonda ham bir-birini qo‘llab-quvvatlab, mintaqalararo va ko‘p tomonlama platformalarda, jumladan, BMT, MDH, SHHT, Qo‘shilmaslik harakati doirasida samarali hamkorlik qilyapti.

Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan ishonchli va yaqin do‘stona munosabatlar samarali davlatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zaro hamkorlikning yangi dinamikasi va mazmunidan Belarus rahbarining 2016-yildan buyon O‘zbekistonga rasmiy (2018-yil) va amaliy (2022-yil) tashriflari hamda davlatimiz rahbarining Belarus Respublikasiga rasmiy (2019-yil) tashriflari dalolat beradi.

Qayd etish kerakki, keyingi yillarda yuqori va mintaqalararo darajadagi muloqotlar keskin faollashdi. Jumladan, Belarus Bosh vaziri Roman Golovchenko 2022 va 2023-yillarda ikki marta O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

Ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari konstruktiv muloqotni rivojlantirmoqda, vazirlar darajasidagi muntazam uchrashuvlar va tashriflar, shuningdek, siyosiy maslahatlashuvlar qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Parlamentlararo hamkorlik ham mustahkamlanmoqda. 2020-yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasida Belarus Milliy Assambleyasining yuqori va quyi palatalari bilan hamkorlik bo‘yicha guruhlar tashkil etildi. O‘z navbatida,

Belarus parlamentida O‘zbekiston Oliy Majlisi bilan hamkorlik bo‘yicha guruh faoliyat yuritmoqda. MDHga a‘zo davlatlar Parlamentlararo Assambleyasi doirasida parlament delegatsiyalarining muntazam tashriflar almashishi va o‘zaro hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston va Belarusda bo‘lib o‘tgan Prezident va parlament saylovlarida ikki davlat parlament a‘zolari xalqaro kuzatuvchi sifatida doimiy ravishda ishtirok etmoqda.



Ta’lim sohasida Belarus bilan 180 ga yaqin oliy ta’lim muassasalariaro shartnoma va hamkorlik memorandumlari imzolangan. O‘zbekiston Prezidentining 2019-yildagi qarori bilan Toshkent shahrida Belarus — O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tashkil etildi. Bugungi kunda mazkur oliy ta’lim muassasida 1400 nafardan ortiq talaba tahsil olmoqda.

O‘zbekiston va Belarus o‘rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik izchil mustahkamlanib borayotir. Xususan, ikki tomonlama soliqla tortishning oldini olish va mamlakatlar o‘rtasida erkin

savdo rejimi to‘g‘risidagi kelishuvlar o‘zaro savdo ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishiga xizmat qilyapti. Ushbu ko‘rsatkich 2023-yil oxirida 2022-yilga nisbatan 15 foizga oshdi.

sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish uchun samarali platforma hisoblanadi.

Belarus delegatsiyalari har yili Toshkentda bo‘lib o‘tadigan “Innoprom. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasida qatnashyapti. O‘zbekiston ishbilamon doiralari delegatsiyalari o‘z navbatida, Belarusda bo‘lib o‘tadigan sanoat va kooperatsiya yarmakalarida ishtirok etish uchun Minskka tashrif buyurmoqda.

Prezident Aleksandr Lukashenkoning 2018-yil sentabr oyida O‘zbekistonga va Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyul-avgust oylarida Belarusga tashriflari doirasida ikki davlat poytaxtlarida mintaqaviy forumlar va milliy ko‘rgazmalar o‘tkazildi.

Prezident Aleksandr Lukashenkoning O‘zbekistonga rasmiy tashrif arafasida 6-7-fevral kunlari Toshkentda Ishbilamonlar kengashi yig‘ilishi va mintaqalararo forum bo‘lib o‘tdi. Unda ikki mamlakat ishbilamon doiralari va iqtisodiy tuzilmalari vakillari ishtirok etdi va hamkorlik aloqalarini kengaytirish istiqbollari hamda imkoniyatlari muhokama qilindi.

Ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri transport-logistika sohasidir. Ta’kidlash kerakki, savdo to‘siqlarini bartaraf etish, o‘zaro tovar ayirboshlash ko‘lami va hajmini kengaytirish, yuk tashishni oshirish bo‘yicha tomonlar salmoqli yutuqlarga erishdi.

Belarus bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishning asosi ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi yaqin do‘stona rishtalar bilan bog‘liq. Bugungi kunda O‘zbekistonda 18 mingga yaqin belarus millati vakillari istiqomat qilyapti. Ular mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, ko‘pmillatli va bag‘rikeng O‘zbekistonda tinchlik va totuvlikda yashab, o‘z madaniyati va an‘analarini asrab-avaylagan holda yosh avlodga yetkazmoqda. 1993-yildan buyon mamlakatimizda “Svitanak” belarus milliy madaniy markazi faoliyat ko‘rsatyapti. O‘tgan yili mazkur madaniyat markazining 30 yilligi yurtimiz bo‘ylab keng nishonlandi.

O‘z navbatida, Belarus Xorijiy davlatlar bilan do‘stlik va madaniy aloqalar jamiyati huzurida “Belarus — O‘zbekiston” jamiyati tashkil etilgan. Uning faoliyati Belarusda o‘zbek madaniyati va an‘analari, mamlakatimiz tarixi va san‘atini keng targ‘ib etishga qaratilgan.

Ikki davlat o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqotning faolligi ham e‘tiborga molik. O‘zbekiston va Belarusda ikki xalq madaniyati kunlari muntazam o‘tkazib kelinaypti, respublikalarning ijodiy guruhlari xalqaro festival va turli tadbirlarda qatnashyapti.

Toshkentdagi belarus yozuvchisi Yakub Kolas, Minskda buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haykallari ikki xalq do‘stligi timsoliga aylangan.

Kinematografiya sohasidagi hamkorlik ko‘lami ham kengaymoqda. 2021-yilda Belarusda O‘zbek kinosi kunlari, O‘zbekistonda esa Belarus kinosi kunlari bo‘lib o‘tdi. O‘sha yili o‘zbek rejissyorlari Jahongir Ahmedov tomonidan suratga olingan “Ilhaq” badiiy filmi Minskda o‘tkazilgan “Listopad” xalqaro kinofestivalining eng oliy — Gran-pri mukofoti hamda Belarus Prezidentining “Kinoda insonparvarlik va ma’naviyat uchun” maxsus mukofotiga munosib ko‘rildi.

Ta’lim sohasida Belarus bilan 180 ga yaqin oliy ta’lim muassasalariaro shartnoma va hamkorlik memorandumlari imzolangan. O‘zbekiston Prezidentining 2019-yildagi qarori bilan Toshkent shahrida Belarus — O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tashkil etildi. Bugungi kunda mazkur oliy ta’lim muassasasida 1400 nafardan ortiq talaba tahsil olmoqda.

O‘zbekiston va Belarus davlat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida amalga oshirilayotgan qo‘shma ta’lim dasturlarida salkam 2,5 ming o‘zbekistonlik yoshlar ta’lim ollyapti.

Sog‘liqni saqlash sohasida ham ikki tomonlama aloqalar jadal rivojlanayotganini aytib o‘tish joiz. 2023-yil noyabr oyida yurtimizda O‘zbekiston — Belarus sog‘liqni saqlash va tibbiyot ta’limi kunlari, shuningdek, Belarusda qo‘shma tibbiyot forumi bo‘lib o‘tdi.

Muxtasar aytganda, O‘zbekiston — Belarus ikki tomonlama munosabatlari tobora yangi mazmun va ma’no bilan to‘ldirilib, davlatlarimiz imkoniyatlarini mos ravishda yanada yuqori pog‘onaga ko‘tariyapti. Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning O‘zbekistonga rasmiy tashriflari esa hamkorlikning yangi uflarini belgilash va ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

Bugunning gapi

DAXLDORLIK ZANJIRI Barcha mas’ullarni xalqparvarlik hissi bog‘lab turadi



Dilbar MAMAJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

➤ **Boshlanishi 1-betda**

O‘z navbatida, turar joylarga talab va taklif o‘rtasida muvozanat buzilishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham mazkur omilni hisobga olish va aholini uy-joy bilan ta’minlash davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolarning baxtli va farovon hayot kechirishi, ularni munosib yashash sharoiti va uy-joy bilan ta’minlash borasida juda keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Yosh oilalar va ijtimoiy ko‘makka muhtojlar uchun uy-joy ajratilishi, birlamchi va ikkilamchi bozorda xonadonlar xaridi uchun imtiyozli kredit liniyalari yo‘lga qo‘yilishi, subsidiyalar berilishi, asosiysi, har bir hudud talabidan kelib chiqib, zamonaviy uy-joylar qurilishi kabi chora-tadbirlar fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Bugungi shiddatli davr barchamizdan izlanishni, yangicha fikrlashni, fidokorona ishlashni talab etmoqda. Bu masalada ham shaxsiy namuna ko‘rsatayotgan davlatimiz rahbari har bir sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, bajarilgan ishlarni tanqidiy ruhda chuqur tahlil va

sarhisob qilayotgani hamda galdagi vazifalarni qo‘yayotgani rahbarlarning xalq oldidagi mas’uliyatini kuchaytirmoqda, ularni doimo uyg‘oq va sergak bo‘lishga undamoqda.

Navbatdagi sarhisob yig‘ilishi uy-joy qurilishi, kommunal xo‘jalik, transport va ekologiya masalalari muhokamasiga bag‘ishlandi va unda sohadagi dolzarb muammolar tahlil qilindi, tanqidiy fikrlar bildirildi, istiqboldagi rejarlar belgilandi.

Davlatimizning aholi uy-joy va kommunal xo‘jaligini rivojlantirish borasidagi islohotlarni izchil davom ettirishga harakat qilayotgani, soha mutasaddilarini bu ishga katta mas’uliyat va kuyinchaklik bilan yondashishga undayotgani zamirida har bir yurtdoshimizni baxtli-saodatli ko‘rish istagi mujassam. Prezidentimizning “Mening eng katta niyatim shuki, Vatanimiz ichra har bir inson o‘zining “kichik vatani”ga — uy-joyiga ega bo‘lsa, xalqimiz ham, Yaratgan ham rozi bo‘ladi” degan ezuu istagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham o‘z ifodasini topdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ipoteka krediti bozorini yanada rivojlantirish, aholining uy-joyga talabini qondirish, davlat byudjeti hisobidan subsidiya taqdim etish, xususiy pudrat tashkilotlarini zamonaviy ko‘p qavatli uylar qurilishiga keng jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, o‘tgan yilning o‘zida 90 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratib berilgan bo‘lsa, yaqin 2-3 yilda bu ko‘rsatkichni 200 mingga yetkazish ustida ishlamoqda.

Lekin nega uy-joy, kommunal sohasidan xalqimiz eng ko‘p norozi bo‘lmoqda? Nima sababdan sohani tartibga solish masalasida mas’ullar emas, davlat rahbari qayg‘urishi kerak, degan savollar kishini o‘ylashga majbur qiladi.

Albatta, uy-joyli bo‘lish oilaga xursandchilik olib keladi. Biroq loyiha, tender, qurilish va obyektni qabul qilish bilan bog‘liq barcha jarayonda korrupsiya holatlari hamda qurilishdagi “obnal” va o‘g‘riliklar sababli sifatsiz qurilgan uy egasiga aylanamiz. Qurilishga ajratilgan byudjet mablag‘ining maqsadsiz ishlatilishi, talon-toroj qilinishi qurilayotgan uy-joylarning sifatiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Sohadagi eng katta muammo loyiha tashkilotlarining obyekt qiymatini imkon qadar shishirishga harakat qilishidir. Chunki loyiha qancha qimmat bo‘lsa, loyihachi shuncha ko‘p pul oladi. Moliyaviy resurs yo‘qligi sababli quruvchilar aholi mablag‘ini poydevor qurish

bosqichida jalb qilib, odamlarni ulushdor sifatida rasmiylashtirmoqda. Natijada ayrim nopok quruvchilar hisobiga odamlar himoyasiz qolmoqda. Bugungi amaliyotga muvofiq, kadastr hujjati yo‘q uyga ipoteka krediti berish mumkin emas. Ayrim nopok quruvchilar odamlarning ishonchiga kirib, uy yoki binolar qurib berishni va-da qilib, uylarni qurib bermasdan yoki boshqaga sotib yuborib, chuv tushirib ketmoqda. Mazkur muammoni bartaraf qilish uchun uy-joy qurilishiga aholining ulushdor bo‘lib kirishini huquqiy jihatdan tartibga solish zarur.

Bu kabi holatlar uy-joy, kommunal xo‘jaligi sohasini ham chetlab o‘tmagan. Ko‘p qavatli uylarning issiqlik va suv ta’minotini yaxshilash uchun mas’ullarda vakolat, imkoniyat, sharoit bor, ammo izlanish, tashabbus yetishmaydi. Suv, elektr va issiqlik energiyasini tejash haqida bong uramiz, lekin uni qay yo‘l bilan tejash mumkinligi haqida izlanmaymiz, “bugunim o‘tsa bo‘ldi” qabilida kun o‘tkazamiz.

Aholini qiynab kelayotgan masalalar — uy-joyga egalik, uni sotib olish va hujjatlashtirish, kadastr, suv, issiqlik, elektr, chiqindi, ijtimoiy infratuzilma, kommunikatsiya kabi bir-biriga chambarchas sohalarni tartibga solish uchun mas’ul idora va tashkilotlar bir yoqadan bosh chiqarishi, “sen menga tegma, men senga tegmayman” qabilida ish yuritishdan voz kechishi, mutasaddilar ong-u shuurida yurtparvarlik, xalqparvarlik his-tuyg‘usi bo‘lishi talab etiladi.

Parlamentimiz tomonidan uy-joy sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan qonunchilik hujjatlari chig‘irigan o‘tkazilmoqda. Xususan, ayni kunlarda O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy, Shaharsozlik kodekslari, “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi qonun va boshqa ko‘plab qonunchilik hujjatlari takomillashtirilmoqda. Sohadagi muammo va kamchiliklarning oldini olish hamda bartaraf etish — bugunning dolzarb vazifasi. Tizimni korrupsiyadan xoli qilishning eng maqbul yo‘li raqamlashtirish hamda turli platforma va loyihalarni yo‘lga qo‘yishdir.

Mamlakatimizdagi islohotlarda inson qadriini ulug‘lash, xalqimizga yengillik va qulaylik yaratish oliy maqsad qilib olingan. Bu kabi ishlarni bajarishda, albatta, siyosiy iroda, tashkilotchilik va uzoqni ko‘ra olish qobiliyati samara beradi. Islohotlarda javlon urib, el-yurt dardiga darmon bo‘la olgan rahbargina xalq ishonchiga sazovor bo‘ladi, roziligiga erishadi.

Inson qadri uchun

IJTIMOIIY KO‘MAK ENDI MANZILIGA ANIQ YETIB BORADI

Aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmini mahalla darajasida yo‘lga qo‘yish, uning manzilliligi va samaradorligini oshirish maqsadida mahallalarda tashkil etilgan ijtimoiy xodim faoliyati o‘zini oqlamoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga hududlardan ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi 59 ta mahalla fuqarolar yig‘inida 20 nafar, Termiz shahrida 18 nafar ijtimoiy xodim faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu xodimlar dastlab uy-ma-uy yurib, har bir xonadon holatini o‘rganagan holda iqtisodiy ahvolini tahlil qilmoqda. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqa tayinlash hamda ma’lumotlarni taqdim etish ishlari samarali tashkil etilmoqda.

Uzun tumanidagi “Bobotog” qishloq fuqarolar yig‘ini hududida 16 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Ular to‘liq xatlovdan o‘tkazilib, “Onlayn mahalla” elektron platformasiga kiritildi. Yaqin-yaqin gacha mahalladagi imkoniyati cheklangan shaxslarga bunday e’tibor bo‘lmagan.

Ko‘p yillar davomida fuqarolar kichik bir masala yuzasidan ham 110-120 kilometr uzoqlikka joylashgan tuman markaziga, ya’ni hokimlikka borishga majbur edi, bugun esa ular o‘z muammolari bilan mahalla faollariga murojaat etmoqda. Mahalladagi ijtimoiy xodim tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda

aholi muammosiga yechim topmoqda. Natijada odamlarning ovoragarchiligi-yu ortiqcha xarajatlari kamayib, muammolari tez fursatda ijobiy hal qilib berilmoqda. Bu ayniqsa, imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun katta qulaylikdir.

“Bobotog” QFYga qarashli Yangiobod va Tolto‘g‘ay mahallalariga birkiritilgan ijtimoiy xodim Faxriddin Jo‘rayev hudud aholisining ishonchini oqlashga va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning ijtimoiylashuviga hissa qo‘shishga astoydil harakat qilyapti.

Tolto‘g‘ay mahallasida istiqomat qiluvchi Mavjuxol Baratova 46 yoshda. Ammo dard vujudini erta egallab oldi. 2016-yilda uning sog‘lig‘ida jiddiy muammolar paydo bo‘lib, buyrak yetishmovchiligi boisi, o‘ng buyragi jarrohlik yo‘li bilan olib tashlangan va ikkinchi guruh nogironligi tayinlangan. Oradan uch yil o‘tib, poliartred xastaligini ham orttirib oldi. 2022-yilda salomatligi yomonlashgani sabab tibbiy ko‘riktan o‘tganda yurak qismida suyuqlik to‘plangani tashxisi qo‘yildi.

Odamlarning muammolarini uyma-uy o‘rganib yurgan Faxriddin Jo‘rayev 2023-

yil noyabr oyida Mavjuxol Baratovani tibbiy ko‘riktan o‘tkazishda bosh-qosh bo‘ldi. Shifokorlar xulosasiga asosan, ayolga birinchi guruh nogironligi berildi. Hozir mahalladagi ijtimoiy xodim va tuman tibbiyot birlashmasi hamkorligida qonunda ko‘rsatilgan tartibda doimiy ravishda bepul dori-darmon bilan ta’minlanadi hamda doimiy shifokor nazoratiga olingan.

Hayotda har kuni turfa xil insonlarga va ularni azobga qo‘ygan yoki qiynayotgan muammolarga duch kelamiz. Kimdir hayotdan nolisla, kimdir omadi chopmaganidan, imkonsizligidan, faqirligidan norozi bo‘lib yashaydi. Yana birov sog‘lig‘i joyida emasligidan aziyat chekadi.

Ammo shunday insonlar borki, taqdir ularga katta sinov, davosiz dard bergan bo‘lsa-da, imkon qidiradi, hayotda kurashishdan, intilishdan, harakat qilishdan to‘xtamaydi. Imkoniyati cheklangani uning intilishi va iqtidorini namoyon etishiga to‘siq bo‘la olmaydi. Barchasini Yaratganning inoyati va sinovi sifatida qabul qiladi.

Yangiobod mahallasida yashovchi Bahodir Norboyev ana shunday irodasi mustahkam, taqdir sinovlarini pisand qilmaydigan bardoshli insonlardun. U 1994-yil Uzun tumanida tug‘ilgan. 2018-yilning avgust oyida tog‘da mol boqib yurganida chap oyog‘idan zaharli ilon chaqib olgan. Natijada o‘sha yilning sentyabr oyida oyog‘idan operatsiya qilingan va unga ikkinchi guruh nogironligi belgilangan.

Bahodir aksariyat odamlarga o‘xshab “taqdirim shu ekan”, deb o‘tirmadi. Intildi, harakat qildi. Undagi bu ishtiyoqni ko‘rgan ijtimoiy xodim, mahalla faollari, tegishli tashkilotlar hamkorlikda o‘zini o‘zi band qilishi uchun Bahodirga motoroller olib berishdi. Hozir u kuniga o‘rtacha 100 ming so‘mgacha daromad topmoqda.

Aytish joizki, hududlarda tashkil etilgan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari bugun har bir mahallaga kirib bordi. Ularning oldiga ko‘p vazifalar qo‘yilgan. Xodimlar esa yaratib berilayotgan imkoniyat va bildirilgan yuksak ishonchni oqlash, odamlarga naf keltirish, amalga oshirilayotgan islohotlarda imkon qadar hissa qo‘shish yo‘lida astoydil mehnat qilib, el-yurtning duosini olmoqda.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Taraqqiyot yo‘li

SHU SOHADA ISHLAYAPMIZMI,
UNING ICHIDA CHIN YURAKDAN YASHASH KERAK

Qo‘ng‘irotboy SHARIPOV,
oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vaziri

Boshlanishi 1-betda

Ta’kidlash joizki, o‘tgan yetti yilda sohaga 6 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratilganda, ko‘zlangan natijaga erishilmagani, ilmfanda “xarajat — tadqiqot — mahsulot” degan formula ishlamayotgani oldimizda juda katta vazifalar turganini, professional va oliy ta’limda keskin o‘zgarish qilmasak, bundan keyin ham ishlarimiz samarasiz bo‘lishini ko‘rsatadi.

Hayotiy so‘z bilan aytsek, shu sohada ishlayapmizmi, uning ichida chin yurakdan yashash kerak. Davlatimiz rahbari talabi va xalqimiz ishonchini his qilish, ertangi yorug‘ istiqbolimizga barchamiz birdek mas’ul ekanimizni teran anglashimiz vaqti keladi. O‘zibo‘larchilikda ishlashga endi haqqimiz yoki q‘.

Oliy ta’limni anglash va uni
keng tatbiq etish —
dolzarb masala

Oliy ta’lim shaxs va jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, soha orqali kadrlar turli fanlar bo‘yicha chuqur bilim va maxsus ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, zamonaviy mehnat bozorida kreativ fikrlaydigan, muammolarni hal qilish qobiliyati va muloqot ko‘nikmasi shakllangan, jamoada ishlash va yetakchilik salohiyati dasturlangan mutaxassislar tayyorlanmasa, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, qancha katta mablag‘ yo‘nal-tirmaylik, ta’lim sifati samaradorligiga erishish mushkul masala bo‘lib qolaveradi.

Sifatli ta’lim oliy ta’lim muassasalarida bilim va innovatsiyalarning rivojlanishini ta’minlab, mamlakatdagi islohotlarda katta ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy, texnologik rivojlanishga imkon beradi.

Shuning uchun oliy ta’limda sifatni oshirish shaxsiy rivojlanish, kasbiy muvaffaqiyat, jamiyat taraqqiyoti, bilim va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun zarurdir.

Biroq oliy ta’lim sifatini oshirishdek muammo mamlakatimiz taraqqiyotida yechimini kutmoqda. Chunki ta’limdagi sifat standartlarini buzish mamlakat taraqqiyotida sezilarli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, odatda ish beruvchilar tabiiy ravishda sifatli ta’lim berish bilan mashhur bo‘lgan OTM bitiruvchilarini ishga qabul qiladi. Bu shuni anglatadiki, o‘qishni bitirish osondir, ammo sifat standartlari pastroq bo‘lgan muassasalar bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash qiyinroq kechadi. Bundan tashqari, sifatiz ta’lim olgan bitiruvchilar ish beruvchilar talab qilayotgan zarur ko‘nikma va bilimga ega bo‘lmasa, bu ularning nafaqat ish topishiga, balki keyingi hayotiga, istiqboliga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Bunday natija ota-onalarning ta’limga bo‘lgan ixlosini so‘ndiradi. Muammo nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Chunki bu yerda bir insonning oilasidan, turmushidan orttirib, iqtisod qilib, farzandiga sarflagan mablag‘i, vaqti, umri va uning kelajak-taqdiri yotibdi.

Videoselektorda ko‘yilgan masalaning mohiyatida nafaqat inson resurslarini rivojlantirish, balki **inson qadrini oshirish** va uning yorug‘ istiqbolli hayotini bugundan yaratish ko‘zlangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu sababli, OTMlar bugundan o‘z oldiga ta’lim sifatini oshirish uchun davlat tomonidan belgilab berilgan xalqaro standartlar asosida faoliyatini qayta ko‘rib chiqishni va aniq yo‘naltirishni qo‘ymas ekan, talabalar uchun ham, muassasa uchun ham, jamiyat va davlat uchun ham katta ma’naviy-moddiy yo‘qotishlar va obro‘sizlanishi olib kelaveradi.

Darvoqe, bular ta’lim sifatini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy tomonlari bo‘lsa, ikkinchi tarafi tadqiqot va innovatsiyalar hajmini oshirish

uning yechimidir.

Globalashuv sharoitida sifatli ta’lim taraqqiyotimizning asosiy roli bo‘lib, shaxs va butun jamiyat farovonligi yo‘lida oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifatini nafaqat oshirish, balki izchil rivojlantirishga mas’uldir.

Muammoning ilmiy yechimlari
nimalardan iborat?

Mamlakatimizda xalqchil islohotlar oqibatida o‘tgan davrda jamiyat ma’muriy boshqaruvdan ijtimoiy boshqaruvga o‘tdi. Avval davlat emas, oldin jamiyat, keyin davlat prinsipi joriy qilindi. Rahbarlar kabinetdan quyiga, ya’ni xalq ichiga tushib bordi. Ayniqsa, ta’lim tizimida revolyutsion tarixiy burilishlar yuz berdi. Asriy turg‘unlikka aylangan o‘qituvchilarni paxtaga va boshqa majburiy mehnatga jalb qilishga so‘zsiz chek qo‘yildi. Prezident ishonch telefonlari joriy qilindi. O‘qishga hujjat topshirish deyarli raqamlashtirishga o‘tkazildi, fuqarolarga qulaylik yaratildi — inson omili kamaytirildi. Natijada korrupsion holatlar qariyb yo‘qoldi.

Inson qadri tamoyili asosidagi pragmatik islohotlarda ta’limga davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaralib, maktabgacha ta’lim bo‘yicha qamrov darajasi 2016-yilda 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 74 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliyog‘hlarimiz soni 77 tadan 212 taga yetdi. Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida davlat bog‘chalari quvvati yana 10 ming o‘ringa, xususiy bog‘chalarda 50 ming o‘ringa oshirish belgilab berilgan.

Shiddatli zamon bilan hammasfas yurmasak, bugungi yutuqlar ertaga eskirib qolyapti.

Keyingi yetti yilda ta’limga ajratilgan 6 trillion mablag‘ga nisbatan samara keskin kamligi oqib baholandi. Yangi O‘zbekiston fenomenida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar samarasi o‘laroq oliy ta’limdagi transformatsiya jarayoni, sarmoyalar va moddiy-texnik baza ancha yuqori salohiyatga ega. Xarajatga yarasha shiddatli ta’lim islohotlarini amalga oshirish uchun videoselektorda davlatimiz rahbari qo‘ygan haqqoniy talablardan kelib chiqib, oliy ta’lim sifatini oshirish uchun quyidagi strategiyalarni ilmiy asoslangan holda tatbiq qilish o‘rinli, deb o‘ylaymiz.

Birinchidan, o‘quv dasturlarini vaqti-vaqti bilan sohaning hozirgi talablari asosida qayta ko‘rib chiqish va yangilab borish muhim ahamiyatga ega. Bunday dolzarb maqsadga erishish uchun fanlararo yondashuvlar, amaliy ilovalar va tajribaviy o‘rganish imkoniyatlarini birlashtirish lozim. Amaliy ilovalar talabalarga real loyihalar-da ishlash va amaliyot o‘tash imkoniyatini berish orqali o‘quv dasturiga kiritilishini ta’minlash, amaliy sharoitda qanday qo‘llash tajribalarini integratsiyalashtirish kerak bo‘ladi.

Ikkinchidan, akademik mukammallikka erishish, buning uchun qo‘shma dasturlarni yanada kengaytirish, rivojlantirish orqali yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni jalb qilish va tajribalarini rag‘batlantirgan holda saqlab qolish juda muhimdir. Yuqori malakali professor-o‘qituvchilar o‘z sohasida tajribaga ega hamda oliy ta’lim muassasasining akademik va tadqiqot salohiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. OTMlarga yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni jalb qilish uchun muassasa raqobatbardosh ish haqi va boshqa imtiyozlarni taklif qilishi zarur. OTMlar va professor-o‘qituvchilarga ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish, mahalliy va xalqaro konferensiyalarda, malaka oshirish dasturlarida ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish lozim. Kasbiy rivojlanish dasturlari professor-o‘qituvchilarning o‘qituvchilik mahoratini, tadqiqot qobiliyatini va pedagogik yondashuvlarini yanada boyitishning ajoyib usullarini tadqiq qilish, ularning malakasini oshirishga sarmoya kiritish orqali muassasa uzluksiz tadqiqotlar joriy qilishi hamda sohani takomillashtirishi samaralidir.



Uchinchidan, oliy ta’lim muassasasida tadqiqot va innovatsiyalar salohiyatini yuksaltirish, ilmiy faoliyat uchun resurslar ajratish, tahlilga ixtisoslashgan ilmiy markazlar tashkil etish, professor-o‘qituvchilar va talabalarni ilmiy loyihalar bilan shug‘ullanishga rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Ular tomonidan tadqiq qilingan va amaliyotga joriy etilgan ilmiy tadqiqotning mukammalligini e’tirof etish va mukofotlash tadqiqot istiqboliligini targ‘ib qilishning muhim jihati-dir. Bu tadqiqotchilarni o‘z ishini davom ettirishga va bilimni boyitishga undaydi.

To‘rtinchidan, ta’limdagi mavjud muammoni faol o‘rganish, muammoni yechish va kreativ fikrlashni rag‘batlantirish talabalarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy maqsadga erishishning samarali usullaridan biri sifatida qo‘llanilmoqda. Ta’lim va fanga bunday innovatsion yondashuvlar talabalarning faolligini oshirish va ularga yo‘naltirilgan yondashuvni osonlashtirish uchun bizdan texnologik va interfaol usullardan foydalanishni taqozo qilmoqda.

Beshinchidan, talabalarning muvaffaqiyatini rag‘batlantirish uchun inson qadri tamoyili asosida ularning ijtimoiy hayotidagi turli ehtiyojlarini ta’minlaydigan keng qamrovli ijtimoiy yordam xizmatlarini taqdim qilish talab etiladi. Xususan, akademik maslahatlar, psixologik treninglar, “Ustoz-shogird” an’anasini jonlantirib, kasbga yo‘naltirish va murabbiylik qilish — o‘quvchi va talabani bu kabi qo‘llab-quvvatlash xizmatlari markazlashgan holda tahlil etilishi samara beradi. Ushbu xizmatlarni taklif qilish orqali talabalar va oliy ta’lim muammolarini hal etish, akademik maqsadlarga oson erishish mumkin.

Oltinchidan, kredit modul tizimini yanada rivojlantirish, raqamlashtirishdan keng foydalangan holda xalqaro hamkorlar bilan jadal integratsiyalashtirish, talabalar, professor-o‘qituvchilar almashinuvini kengaytirish, o‘quvni inson omilisiz baholash mexanizmlari yordamida natijalarni aniqlash va doimiy takomillashtirish dolzarbdir.

Yettinchidan, ta’limga oid adabiyotlar elektron platformalar orqali o‘qilishini monitoring qilish, eng ko‘p o‘qilgan ilmiy adabiyotlarni va ularning mualliflari ro‘yxatini shakllantirish, ilmiy kengash tashkil qilish va davlat tomonidan tushadigan buyurtmalarni (o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalari, darsliklari) jamoaviy mualliflarga yozdirish, ularga munosib

qalam haqi to‘lash, bu orqali sifatli adabiyotlarni markazlashgan tartibda chop etish ta’lim sifatini oshirishning asosiy ta’minot manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston ta’limi
bugun va olis kelajak uchun
xizmat qilishi shart

Bugun ta’lim sohasini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, xalqaro qo‘shma dasturlarni yanada integratsiyalashtirish bo‘yicha amaliy ishlar hayotga keng tatbiq qilinmoqda. Jumladan, amaliy islohotlarda maktabgacha

“Umid bilan qadalgan tayoq — bir kun berar meva-yu yaproq”, degan edi nemis mutafakkiri Gyote. Bugun davlatimiz rahbari tomonidan ta’limga maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlab berilayotgan ustuvor e’tibor ana shu oltin harfli misralarni eslatadi.

ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim va undan keyingi ta’limni o‘zaro uyg‘unlashtirish belgilab olindi. Chunki oliy ta’lim maktabgacha va maktab ta’limidan ayro tushunchalar emas, balki uzviylikka ega yaxlit bitta jaryondir. O‘z navbatida, oila va jamiyat ham ta’lim-tarbiyaning o‘chog‘i sanaladi. Shu bois, davlat tomonidan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi tamoyillar bosh maqsad etib belgilangan.

Yaxshi bilamizki, rivojlangan davlatlar tarixiga nazar salsak, inqirozdan keyin yagona yo‘l — ta’limni isloh qilish orqali taraqqiyotga erishgan. Masalan, sovuq urushdan keyin Yaponiya, Koreya, Singapur va boshqa taraqqiy etgan davlatlar bosib o‘tgan yo‘l avvalida o‘qituvchilar qadrlari oshirish, ularning maoshini vazir oyligida tenglashtirish, imtiyozlar berish orqali yaxshi pedagog-o‘qituvchilarni ta’lim muassasalarida saqlab qolgan.

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi Uchinchi Renessansga poydevor qo‘yilar ekan, 2030-yilgacha ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchi maqomini ko‘tarish va ular oyligini ikki barobar oshirish vazifalari qo‘yildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining maqsadi qayerda istiqomat qilishidan qat’i nazar, O‘zbekistonda yashovchi barcha insonlar uchun munosib turmush sharoiti yaratishni va ta’lim sifatini oshirishni ko‘zlaydi. Strategiyaning maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari qulay shaklda ifodalangan bo‘lib, unda 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta maqsad nazarda tutildi.

Xususan, oliy ta’lim va ilm-fan tizimlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida rivojlantirish maqsadida dunyodagi TOP-500 ga kiradigan xorijiy OTMlar hamkorligida kamida 50 ta qo‘shma o‘quv dasturi va “ikki diplomli tizim”ni (“double degree”) joriy etish belgilangan.

AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Turkiya,

Rossiya, Indoneziya, Isroil va boshqa qator davlatlarning nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikdagi “double degree” ta’lim dasturlari asosida o‘qitish qamrovini kengaytirish ta’lim-fan sohasidagi islohotlarda o‘z aksini topmoqda.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi zarur mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish va ta’lim sifatini oshirishga yo‘l ochadi.

Xususan, 2030-yilgacha biotexnologiya, sun’iy intellekt va boshqa yuqori texnologik yo‘nalishlarda iste’dodli yoshlarni xorijiy nufuzli oliyog‘hlar davlat homiyligida o‘qishga yuborish bo‘yicha 200 million AQSH dollarlik dasturlar hayotimizga joriy qilindi. Ushbu tashabbuslar O‘zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish barobarida ta’lim va fan sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida davlat tomonidan ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga 1 milliard AQSH dollari ajratilishi raqamlashtirish va innovatsiyalar sohasining yanada rivojlanishiga, nafaqat ta’lim sifati oshishi, balki aholi turmush sharoiti yuksalishiga, strtegik sohalarning texnologik taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Kelgusi 6 yilda yurtimizning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi mazkur strategiya loyihasi xalqimizning tinch-osoysishta, farovon yashashini ta’minlash, yoshlarga, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Yechimini kutayotgan
muammolar kelajak taqdirimiz
bilan bog‘liq

“Umid bilan qadalgan tayoq — bir kun berar meva-yu yaproq”, degan edi nemis mutafakkiri Gyote. Bugun davlatimiz rahbari tomonidan ta’limga maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlab berilayotgan ustuvor e’tibor ana shu oltin harfli misralarni eslatadi.

Buni, qalban anglasak, bugungi islohotlar kelajak uchun ham nechog‘liq dolzarbligidan dalolat. Afsuski, borish qiyin bo‘lgan chekka ovul va qishloqlarda haligacha maktabgacha ta’lim muassasalari yo‘qligi ta’kidlanib, ba’zi chekka hududlarda bog‘cha yetarli bo‘lishiga qaramay, qamrovi o‘tgan yilga nisbatan bir oz kamaygani bor haqiqat. Shuningdek, xususiy bog‘chalarda bolalar hisobini yuritish raqamlashtirilsa-da, qamrov kamligi, davlat bog‘chalarida raqamlashtirish qoniqarli emasligi ishlashimiz kerakligini bildiradi.

Yig‘ilishda har yili bog‘cha tarbiyachilarining o‘rtacha atigi 9 foizi malaka oshirayotgani, 12 mingta oilaviy bog‘chada davlat ta’lim standartidagi o‘quv-metodik materiallar yetarli emasligi, 250 ta davlat bog‘chasida ta’lim va tarbiya sifatini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy qilish belgilab berildi. Joriy yilda maktablar va maktab ta’limiga 46 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratish rejalashtirilib, matematika, o‘qish va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘tkazilgan 2022-yilgi PISA xalqaro dasturi natijalari sohada qilinadigan ishlar hali ko‘pligini aniq ko‘rsatadi.

Xususan, 500 ta maktabda yangi baholash tizimi joriy qilinib, haqiqiy bilim qay darajada ekanini aniqlangan, ayni paytda 1-11-sinf-larda xorijiy tilga ajratilgan 984 soat

doirasida o‘quvchilarning yarmi ham “B1” darajaga ega bo‘la olmayotgani bevosita tilga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalari oldiga jiddiy majburiyatlar qo‘yadi. Yangicha ishlash tamoyili asosida malaka oshirish institutlari bilan hamkorlikda ishlash zarur.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda Respublika ilmiy-metodik markazi va Loyiha ofisi tegishli vazirliklar bilan birgalikda bundan keyin chuqur ilmiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishi maqsadga muvofiqligini ilgari surdi. Shuningdek, maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini sifatli o‘qitish, xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash vazifasi qayd etildi. O‘quvchilar bilimi, tahilliy, tanqidiy va kreativ fikrlashi, muammoga yechim topib, amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan o‘quv metodikalarini ishlab chiqish vazifalari topshirildi. Bunda tan olingan xorijiy dasturlar (A-level, IB kabi), o‘quvchi va mul-mimlar bilimni baholashda xalqaro tajriba (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichma-bosqich joriy etilishi samaralidir.

Xalqchil tilda materiallar tayyorlanishi, professional va oliy ta’limdagi masalalar ham muhokama qilindi. O‘tgan yilgi 380 ming maktab bitiruvchisidan 180 mingta ta’limni kolleje, texnikum yoki oliyog‘hda davom ettirayotgani qayd etildi. Qolgan 200 ming nafari mehnat bozoriga kirib kelayotgani, dual ta’lim bilan 234 ta profita’lim muassasasida barcha o‘quvchilar qamrab olinmagani tanqidiy ko‘rib chiqildi.

Yechim sifatida vazirliklar o‘ziga tegishli kollejlari va texnikumlar o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash tizimiga ishga qo‘yilishi, ular-dagi quvvati 100 foiz ishlatilishi kerakligi hamkor-ligimizni kuchaytirish dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ko‘p oliyog‘hlar kredit-mudolga o‘tgan, lekin talabaning qobiliyatini yuzaga chiqaradigan tizim yo‘qligi ham izohlandi. Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha joriy yilda 122 ta yangi yirik loyihalar boshlanishi, oliyog‘hlar-da bunday mutaxassislarni tayyorlash 20 foizdan oshmayotgani innovatsion texnologiyalarni boshqaradigan 10 ming muhandis va texnolog kadrlarni yetishtirishni talab etishi vazifa sifatida urg‘ulandi.

Shularni hisobga olgan holda, kolleje-texnikumlar va oliyog‘hlar ish beruvchilar bilan uzviy bog‘laydigan tizim yaratilishi, jumladan, Loyiha ofisi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024-yilda o‘zimizda zamonaviy konstruktor, texnolog, arxitektor, muhandis, energetik kabi ehtiyoj yuqori kasblar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash chora-tadbirlari samarali amalga oshirilishi zarurligini ta’kidlandi.

Endilikda 100 ta kasb tanlanib, Germaniya, Shveysariya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida kasb standartlari ishlab chiqilib, kasbga talab ish beruvchi ehtiyojiga moslashadi. Ish beruvchilarning vakillari ta’lim muassasasida joylashishi uchun juda katta imkoniyat yaratiladi. Ular bilan har bir oliyog‘h, texnikum va kollejdagi texnopark, laboratoriya va amaliy monomarkazlar tashkil etiladi. Talabalar amaliyotni tashkil etilayotgan yangi korxonalarda ko‘proq o‘tkazadi. Yangi o‘quv yilidan boshlab texnikumlar-da o‘qitish “akademik” va “ishchi kasb” ta’lim komponentlarining uzviylikni ta’minlaydigan yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yiladi. Texnikumlarda ham “kredit tizimi” joriy qilinib, kolleje-texnikumda ikki yil davomida yetarli “kredit” to‘plagan o‘quvchilar “2+2” yoki “2+3” dasturlarida oliyog‘hlarining ikkinchi yoki uchinchi kursida ta’limni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yana bir muhim vazifa, kolleje-texnikumda “ishchi kasb” yo‘nalishida o‘qiganlar ikki yoki uch yil ishlab, tajriba orttirganidan keyin, imti-hon topshirib, bakalavrga teng malaka darajasini olishini tashkil etishdir. Shuningdek, kolleje-texnikumdagi 50 ming o‘quvchini dual ta’lim bilan qamrab olishni tashkil qilish istiqbollidir.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bakalavr yo‘nalishlarini yiriklashtirish hiso-biga ular sonini 40 foizga qisqartirish, ushbu yo‘nalishlardagi ta’lim dasturlarini TOP-300 ga kirgan oliyog‘hlar dasturi asosida yangilash lozim. Aniq va fundamental fanlar bo‘yicha ilg‘or darsliklarni xorijiy tillardan bosqichma-bosqich tarjima qilish, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 116 ta oliyog‘hni o‘rganib, ularni yiriklashtirish dasturini ishlab chiqish, ularga “milliy”, “davlat” universiteti, akademiya yoki institut maqomini berishning aniq dasturlarini belgilab oldi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha berilgan yuqoridagi ulkan dasturlar ijrosini jadal ta’minlash, oliy ta’lim muassasala-rida joriy qilish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish, ularning ijrosi bo‘yicha monito-ring olib borish qat’iy yo‘limiz bo‘ladi.

Zero, 2030-yilgacha ko‘zlangan maqsadlarni yuzimiz yorug‘ holda amalga oshirib borish Vatan oldidagi muqaddas burchimiz va davlatimiz rahbari bildirgan yuksak ishonchni oqlash majburiyatidir.





Sharh

KUCHLI KENGASH, HISOBDOR VA TASHABBUSKOR HOKIM



Narimon UMAROV,
Oliy Majlis Senatining
Sud-huquq masalalari va
korruptsiyaga qarshi kurashish
qo'mitasi raisi

Mahalliy kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini ustidan Xalq deputatlari kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularga o'ndan ortiq qo'shimcha vakolat berildi. Xususan, prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq, ekologiya va sog'liqni saqlash organlari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyada Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari sifatida "mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish" ham belgilandi.

Umuman olganda, oxirgi yillarda biz Xalq deputatlari mahalliy kengashlari faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Bu kabi ishlar samarali tashkil etilishida Oliy Majlis Senati tomonidan ham amaliy yordam ko'rsatib kelinmoqda.

Xususan, ularga amaliy-uslubiy jihatdan ko'maklashish mahalliy vakillik organlari faoliyatiga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, deputatlarga uslubiy jihatdan ko'maklashish ishlari tashkil etildi. Mahalliy kengashlarda doimiy asosda faoliyat yurituvchi kotibiyatlar tashkil etilishi kengashlar ishida uzluksizlikni ta'minladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Senat qo'mitalari bilan hamkorlik uchun qulaylik yaratish maqsadida mahalliy kengashlarning

Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo'yicha vakolatlari kengaytirilib, xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yogba chiqarish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

doimiy komissiyalari faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqildi. Ularning namunaviy nizomi qayta ishlandi. Tarkibi va faoliyat yo'nalishlari Senat qo'mitalarining moslashtirildi.

Masalalarni hamkorlikda o'rganish va natijalarini joylarda muhokama qilish amaliyoti joriy etildi. Senat qo'mitalari tomonidan soha bo'yicha qonunchilikdagi yangiliklar va o'zgarishlar to'g'risida har chorakda kamida bir marotaba seminarlar tashkil etish amaliyotiga o'tildi.

Konstitutsiyamizga muvofiq, davlat hokimiyatini xalqqa yanada yaqinlashtirish, xalq hokimiyatchiligi asoslarini kuchaytirish maqsadida hokimlar va mahalliy kengashlarning vakolatlari bir-biridan ajratildi. Aholining joylardagi dolzarb muammolarini hal etish uchun chinakam "xalq ovozi" bo'lmish mahalliy kengashlarga keng vakolatlar berildi, ularga hokim emas, balki deputatlar orasidan saylanadigan rais boshchilik qilishi belgilab qo'yildi.

Prezidentimizning 2024-yil 2-fevraldagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mahalliy darajada davlat hokimiyatini transformatsiya qilish, tom ma'noda xalqchil tizimni joriy etishga qaratilgan muhim siyosiy islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Farmon bilan O'zbekiston mahalliy boshqaruvi tarixida birinchi marotaba mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini yangi model — **"Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim"** tamoyili asosida isloh qilishga qaratilgan qator qoidalar belgilab berildi.

Birinchiidan, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda ushbu hududda istiqomat qilayotgan aholining fikrini inobatga olish, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari rolini oshirish maqsadida ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish, shaharsozlik, transport va hudud infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan 33 ta vakolat kengashlar ixtiyoriga o'tkazilmoqda.

Jumladan, **ta'lim sohasida:** tegishli hududda davlat bog'cha va maktab-

larini tashkil etish bo'yicha qaror aynan mahalliy kengashlar tomonidan qabul qilinadi.

Endilikda hududdagi ehtiyojni har tomonlama o'rgangan holda qaysi hududda, mahallada yangi maktab yoki bog'cha tashkil etish kerak, qaysi birini kengaytirish, qaysisini tugatish kerakligini

Konstitutsiyada

Oliy Majlis

Senatining mutlaq

vakolatlari sifatida

"mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish" ham belgilandi.

aholi irodasining ko'zgusi bo'lmish xalq vakillari hal etadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida: atmosfera havosini ifloslantiruvchi yoki unga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi korxona va inshootlar quriladigan, chiqindilar ko'mib tashlanadigan joylar xalq vakillari roziligi bilan belgilanadi.

Mahalliy ahamiyatga molik bo'lgan kurort tabiiy hududlar, rekreatsiya zonalar, botanika va dendrologiya, tabiat bog'lari ham faqatgina kengashlar roziligi bilan tashkil etiladi yoki tugatiladi. Ya'ni bu boradagi qarorlar tegishli hudud aholisi tomonidan saylangan deputatlar fikrini inobatga olgan holda kollegial tartibda qabul qilinadi.

Mazkur islohot, shubhasiz, umummilliy boyligimiz — tabiiy resurslarni asrashga xizmat qiladi.

Shaharsozlik va transport sohasida: Yo'lovchi tashish transportida yo'lovchi va



bagaj tashish tariflari mahalliy kengashlar tomonidan belgilanadi. Fuqarolarning alohida toifalari uchun imtiyozli tariflar kengash qarori bilan joriy etiladi.

Shuningdek, shahar yo'lovchi tashish transportida yo'nalishlarni tashkil etish, yangi yo'nalishlar ochish, bekatlar, to'xtab turish va dispetcherlik manzillarini joylashtirish yerlari mahalliy kengash bilan kelishilishi lozimligi belgilanmoqda.

Transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi hamda tabiiy obyektlarga nom berish, nomlarini o'zgartirish bo'yicha takliflar bevosita mahalliy kengashlar tomonidan kiritiladi.

Bundan tashqari, ayrim toifadagi shaharsozlik faoliyati obyektlarini mahalliy ahamiyatga molik obyektlar sirasiga kiritish ham mahalliy kengashlar qarori bilan amalga oshiriladi.

Hudud infratuzilmasini rivojlantirish sohasida:

aholi punktlarining hududiy zonalar toifalariga mahalliy sharoitlardan kelib chiqib o'zgartirish kiritish, ichimlik suv ta'mini va ogova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflarni tasdiqlash kabilar ham kengashlar tomonidan amalga oshirilishi uzil-kesil hal etilmoqda.

Ta'kidlash joizki, bu kabi vakolatlarning egasi etib mahalliy kengashlar belgilanishi jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan masalalarni

aholi fikrini inobatga olgan holda xalq vakillari tomonidan hal qilish imkonini beradi.

Ikkinchiidan, yillar davomida mahalliy kengashlar zimmasiga yuklanib kelingan qator vakolat va funksiyalar tizimlashtirilmoqda.

Xususan, mahalliy kengashlarga mahalliy hokimliklar, hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hisobotlarini eshitishda mazmunan yaqin sohalarida o'zaro takrorlanuvchi vazifalar yuklangani sababli ularni qayta ko'rib chiqish, maqbullashtirish hamda tizimlashtirish zarurati mavjud edi.

Qonunchilikdagi vakolatlari tizimlashtirilmagan tufayli mahalliy kengashlar hokimliklar va qator davlat idoralarning u yoki bu sohaga oid hisobot va axborotlarini yiliga qariyb yuzdan ortiq marotaba eshitishi lozim edi. Bu esa mahalliy kengashlarning ish yuklamasini sun'iy ravishda oshirib, joylarda haddan tashqari tartibga solish, muhim vakolatlarni nomigagina amalga oshirilishiga sabab bo'layotgandi.

Qolaversa, ichki ishlar organlari hududiy bo'linmalari rahbarlari, tarmoq bo'yicha o'rinsbosarlari, shuningdek, mahallalardagi profilaktika inspektorlari ham mahalliy kengashlarga alohida-alohida hisobot berardi.

Shu sababli hujjat bilan kengashlarning hisobot va axborot eshitishga oid ayrim vakolatlari qayta ko'rib chiqilib, ular sohalar bo'yicha tizimlashtirildi.

Farmon bilan kengashlar oldida tegishli hududda faqatgina hokim, shuningdek, hududiy davlat organlarining birinchi rahbarlari hisobdorligi belgilanishi kelgusida ushbu rahbarlarning kengash oldida ham siyosiy, ham professional mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchiidan, "Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida qonunchilik hujjatlardagi 100 dan ortiq vakolatni mahalliy kengash va ijroiya hokimiyati o'rtasida aniq taqsimlash yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida 2024-yilgi saylov yakunlari bo'yicha dastlab viloyatlar va Toshkent shahri kengashlarida, 2026-yildan e'tiboran tuman (shahar) kengashlarida kengash raislari va hokimlar alohida-alohida faoliyat yuritishi belgilandi.

Mazkur o'zgarishlar sabab amaldagi qonunchilik bilan bugunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga yuklatilgan umumiy vazifa va funksiyalarning mahalliy vakillik organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida aniq taqsimlanishi belgilanmoqda.

To'rtinchiidan, kengashlarning o'z faoliyatini davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda amalga oshirishi kafolatlanmoqda.

Xususan, endilikda mahalliy kengashlar zimmasiga vazifa va funksiyalar faqatgina qonun hujjatlari bilan yuklanadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan mahalliy kengashlar faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Kelgusida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda tegishli vazifalar mahalliy vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida aniq belgilab boriladi. Shuningdek, amaldagi qonunchilikdagi mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan va kengashlar faoliyatiga xos bo'lmagan vazifalar ijrosi bo'yicha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mas'ul ekanligi belgilanmoqda.

Ushbu yangiliklar, shubhasiz, mahalliy kengashlarning faoliyatini faqatgina saylovchilari va tegishli hudud manfaatini ko'zlagan holda amalga oshirishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchiidan, samarali faoliyat yuritishi uchun kengashlar zarur shart-sharoitlar va moddiy-texnika bilan ta'minlanadi. Xususan, Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) kengashlarini alohida-alohida bino bilan ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'riladi. Bunda 2024-yilning 1-oktabriga qadar bo'lgan birinchi bosqichda viloyatlar va Toshkent shahri kengashlari, ikkinchi bosqich — 2025-yil 1-dekabrga qadar esa tuman va shahar kengashlari bino va inshootlar bilan ta'minlanadi.

Bir so'z bilan aytganda, farmonda belgilangan bu kabi muhim vazifalar kengashlarni joylardagi aholi manfaatlarini himoya qilish, hal etilishi lozim bo'lgan masalalarga imkon qadar tezroq yechim topish, viloyat, tuman va shahar hokimining mahalliy kengashlar oldidagi hisobdorligi, mas'uliyati va javobgarligini oshirish, mahalliy davlat hokimiyati darajasida bir-birini tiyib turuvchi mexanizmlar samarali ishlashiga xizmat qiladi.

Islohotlar samarasi

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev elektromobil ishlab chiqarishni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, yurtimizda avtomobilsozlik bo'yicha katta tajriba va infratuzilma mavjud. Bugungi kunda 8 ta zavodda o'nlab turdagi avtomobillar, yo'lovchi va yuk mashinalari, qishloq xo'jaligi va maxsus texnikalar ishlab chiqarilmoqda. Yana 2 mingdan ziyod korxonada kooperatsiya asosida butlovchi va ehtiyot qismlar tayyorlanypati.

O'tgan yili dekabrda bo'lgan yig'ilishda davlatimiz rahbari elektromobillar hayotimizga tez kirib kelayotganini ta'kidlab, bu sohani o'zlashtirish bo'yicha topshiriqlar bergan edi. Joriy yil yanvarda Xitoyga davlat tashrifi chog'ida Prezidentimiz "BYD" kompaniyasining bosh qarorgohida bo'ldi. Ushbu kompaniya bilan hamkorlikda Jizzax

ELEKTROMOBIL TARMOG'I
Milliy avtosanoatimizda yangi davr boshlanmoqda

viloyatida gibrid va elektr avtomobillarni yig'ish bo'yicha loyiha boshlandi. Kompaniya rahbari bilan muzokara chog'ida yaqin istiqbolida ishlab chiqarish quvvatini yiliga 500 ming donagacha yetkazish bo'yicha fikr almashilgan edi.

Keyingi uch yilda O'zbekistonda elektromobillar sotuvi 10 barobar ko'paygan. 2023-yilda import qilingan avtomobillarning 35 foizini elektromobil va gibridlar tashkil qilgan.

Shu bois, mutasaddilarga bu yo'nalishdagi maralarni kengroq olib, loyihalarni jadallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. "BYD" kompaniyasi hamkorlarini jalb qilib, elektromobillar uchun butlovchi qismlarni o'zlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Darhaqiqat, bundan besh-olti yil oldin mamlakatimiz avtomobilsozligi haqida gap ketssa, faqat Asaka avtomobil zavodi tushunilar edi. Bugun esa amalga oshirilayotgan islohotlar sabab, avtomobilsozlik sanoati milliy iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biriga aylandi.

Jizzax viloyati zamonaviy sanoat hududlaridan biriga aylanmoqda. Buni o'nlab yirik loyihalar tufayli dunyoga mashhur brendlar nomi bilan yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarilayotganidan ham bilsa bo'ladi.

— Oldinlari Jizzax desa, faqat paxta dalalari ko'z oldimizga kelardi. Bugun esa qisqa muddatda



sanoati rivojlangan hududga aylandi, — deydi faxriy jurnalist Abdurkarim Sharipov. — Ayni paytda viloyatda to'qimachilik, elektrotexnika, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, qurilish mahsulotlari, optik tola, avtomobil, murakkab kimyoviy moddalar, energotejamkor materiallar kabi yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarilib, asosiy qismi eksport qilinmoqda. Qolgan sohalarini qo'ya turaylik, viloyatda avtomobilsozlik sanoatining yo'lga qo'yilgani katta tarixiy voqea bo'ldi. Jizzaxda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy davlatlarda ham o'z o'rini topishiga shubha yo'q. Eng

asosiy, ushbu zavodlar ishga tushishi bilan ko'plab ishshis yoshlarimiz yuqori maoshli doimiy ish bilan ta'minlanmoqda. Jumladan, nevaram ham "ADM Jizzakh" avtomobilsozlik zavodida ishlaydi. Ishini yaxshi ko'radi. Muhimi, oilasidan uzoqda emas. Yo'llarda ushbu zavodda ishlab chiqarilayotgan mashinalarni ko'rsam, xursand bo'laman, o'zgacha g'urur tuyaman.

2021-yilda Jizzax erkin iqtisodiy zonasida "ADM Jizzakh" avtomobilsozlik zavodi o'z faoliyatini boshladi. Qariyb yuz gektar maydonni egallagan ushbu majmuada bir necha bosqichdan iborat istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda "KIA", "Chery" kabi brendlar ostida o'ndan ortiq modelda zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi vaqtda zavod to'liq ishlab chiqarish jarayonlarini o'zlashtirish va avtokomponentlarni mahalliyalashtirish bosqichiga o'tgan. Ya'ni kompaniya tomonidan yirik uzelli yig'ish uslubini o'zlashtirish bilan bir qatorda kuzovlarni payvandlash, bo'yash, avtomobillarni yig'ish va yakuniy sinovdan o'tkazishdan iborat bo'lgan to'liq ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish borasida harakatlar davom ettirilmoqda.

Loyihaga muvofiq, "ADM Jizzakh" zavodida ikkinchi bosqichda 310 million dollardan ortiq investitsiya jalb qilinadi. Ushbu quvvatlarni ishga tushirish va asosiy butlovchi qismlarni o'zlashtirish orqali avtomobillarni mahalliyalashtirish darajasi 30 foizga yetadi.

Avtomobillarni ishlab chiqarish jarayoni esa po'lat quyishdan boshlab, tayyor avtomobilgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi.

Ushbu zavod dilerlar tarmog'i qamrovi bo'yicha ham mamlakatimizda ikkinchi o'rinda turadi. Respublika bo'yicha 20 ta dilerlik va xizmat ko'rsatish punktlari mavjud. Barcha loyihalar ishga tushirilishi bilan qariyb 4,5 ming kishi doimiy ish joyiga ega bo'ladi.

— Bugun butun dunyoda elektromobillarga talab oshib boryapti. Shuni hisobga olib, uchinchi bosqichda muqobil energiya manbalari asosida harakatlanadigan avtomobillar ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish ustida ish olib boryapmiz, — deydi "ADM Jizzakh" bosh direktori Doniyor Davletiyarov. — 2030-yilgacha ishlab

chiqarish hajmini yiliga 300 mingtaga yetkazishni rejalashtirganimiz. Natijada ichki bozor uchun keng turdagi model va brendlar joriy qilinadi. Bu, o'z navbatida, ichki bozordagi avtomobillarga bo'lgan talabni ham qondiradi. Bundan tashqari, zavodimiz negizida ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etyapmiz. Bu borada Janubiy Koreya va Xitoydagi tadqiqot hamda loyihalash markazlari bilan hamkorlik shartnomalarini tuzdiki. Joriy yildan boshlab 300 dan ortiq muhandis va loyihachilarning shunday o'quv kurslarida malaka oshiradi. Ushbu yoshlar kelajakda "ADM" global ilmiy-tadqiqot markazining tayanchi bo'lib qoladi. Bu esa, hech shubhasiz, zavodimizning istiqboliga barqaror rivojlanishni kafolatlaydi.

"Jizzax Auto" Jizzaxda tashkil etilgan ikkinchi avtomobil zavodi hisoblanadi. Bu yerda yaqiniga "Volkswagen" avtomobillari ishlab chiqarilayotgan edi. Ayniqsa, ushbu zavod bilan Sog'liqni saqlash vazirligi hamkorligi yaxshi samara berdi. Mazkur zavodda mahalliy chiqarilgan qariyb 1000 ta zamonaviy "Volkswagen Caddy" tez tibbiy yordam avtomashinasi Respublika tez tibbiy yordam markazi hududiy filiallariga topshirildi.

"BYD Uzbekistan Factory" zavodi esa aynan "Jizzax Auto" zavodi negizida tashkil etildi. Mazkur zavodda dastlab yiliga 50 ming, loyiha to'liq ishga tushgach esa 300 ming dona gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari, kelishuv shartlari mahsulotlarni mahalliyalashtirish dasturini ham o'z ichiga oladi. Ya'ni keyingi bosqichlarda dvigatellar, elektrodvigatellar, shuningdek, avtomobil akkumulyatorlari uchun batareyalar ishlab chiqarish ham rejalashtirilgan.

Hozirgacha bu turdagi zamonaviy va tejamkor elektromobillar rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotganini inobatga olsak, bizdagi istiqbolli loyihalar mamlakatimiz ulkan maralarni ko'zlayotganidan dalolat beradi.

Xursand qiladigan tomoni, fuqarolarimizning ham elektromobillarga qiziqishi ortmoqda. Misol uchun, O'zbekistonda 2018-yili bor-yo'g'i 13 ta, 2019-yili 39 ta, 2022-yil 1629 ta elektromobil import qilingan bo'lsa, o'tgan yilning o'zida mamlakatimizga qariyb yigirma olti mingta shunday mashina keltirilgan.

Agar davlat tomonidan aholiga elektromobillar xarid qilishda imtiyozlar berilsa yoki ularning narxi hamyonbop bo'lsa, joriy yilda mamlakatimizdagi elektromobillar bir necha barobar ko'payishi aniq. Bu, o'z navbatida, neft va gaz kabi yer osti boyliklar tejalishiga, ekologik va energetik inqirozning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil — Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

CHEKLANMAGAN SALOHİYATGA EGA KUCH

TALAB VA EHTIYOJNI O‘RGANUVCHI YANGICHA YONDASHUV KERAK



Omonulla MUHAMMADJONOV, Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishda yetakchi o‘rin aynan yoshlarga tegishli. Shu sababli jamiyat oldida yoshlarda yuksak insoniylik, vatanparvarlik, Vatan taqdiri uchun javobgarlik, uni himoya qilishga shaylik tuyg‘usini, yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish vazifasi ilgari surilgan. Mazkur vazifaning hal etilishini jamiyatimiz va davlatimizda ro‘y berayotgan jarayonlar hamda hodisalar bilan bevosita bog‘liq ravishda hozirgi yoshlarga ta‘sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni inobatga olgan holda ko‘rib chiqish kerak.

BMTning “Yoshlar — 2030” strategiyasida “Yoshlar g‘oyat qimmatli va o‘ta ahamiyatli resurs (boylik) bo‘lib, ular uchun sarflangan mablag‘ bir necha barobar ortig‘i bilan o‘zini oqlaydi”, deya ta’kidlangan. Ana shularni hisobga olgan holda, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida dunyo davlatlari faol va izchil e‘tibor qaratishi zarur bo‘lgan asosiy sohalar (ta‘lim, bandlik va boshqalar) belgilab qo‘yilgan.

Bugun O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy va institutsional baza mavjud. Ta‘lim, sport, madaniyat sohalarida qator islohotlar o‘tkazildi. Yosh avlod uchun Prezident ta‘lim muassasalari ochildi, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari soni ko‘paytirildi, ish o‘rinlari va yana ko‘plab imkoniyatlar yaratildi. Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik yordamga muhtoj hamda bilim olish va malakaga ega bo‘lish istagidagi ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, hal etish va monitoring qilib borish uchun ma‘lumotlar bazasi — “Yoshlar daftari” joriy etilganini, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun jamg‘armalar ochilganini ta’kidlash o‘rinli. “Besh tashabbus olimpiadasi” loyihasi doirasida 12 million yigit-qiz qamrab olindi. Mahallalarda loyiha g‘oliblari va sovrindor yoshlar uchun 623 ta sport maydonchasi barpo etildi. 2023-yilda “Yoshlar daftari” tizimi orqali ko‘rsatiladigan yordam turi 30 tagacha ko‘paydi. Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati 30 kundan 5 kungacha qisqardi.

Bosh qonunimizda ijtimoiy jihatdan himoya, munosib yashash sharoiti, ijtimoiy kafolatlarning tegishli tizimini yaratish orqali yoshlar hayotiy imkoniyatini aholining boshqa guruhlari imkoniyati bilan tenglashtirish nazarda tutilgan. Ularning to‘laqonli rivojlanishi, huquqlari himoya qilinishi, hayotga tayyorlanishini ta‘minlash maqsadida faoliyati yosh avlodning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mahalliy hokimiyat organlarini, jamoat birlashmalari va boshqa

Davlatimizda amalga oshirilgan muhim islohotlar, avvalo, yoshlarga, ularning hayotiy pozitsiyalariga, maqsad va intilishlariga, ijtimoiy orzu-istaklariga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Hozir mamlakatimizda 30 yoshgacha bo‘lgan qatlam aholining 60 foizga yaqinini tashkil etadi. Mazkur ulush yaqin o‘n yillikda yanada ko‘payadi. Bu yoshlarga oid puxta o‘ylangan davlat siyosatining dolzarbligini yanada oshiradi.

tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash Konstitutsiya asosida amalga oshiriladi.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunda mazkur siyosatning maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlari, mazmun-mohiyati va shakllari kompleks tizimli asosda belgilab qo‘yildi. Shundan kelib chiqqan holda, yoshlarga oid davlat siyosati yoshlar sohasida davlat tomonidan amalga oshiriladigan maqsadlar, vazifalar, funksiyalar, strategiyalar, chora-tadbirlar, shakllar va usullar majmuini o‘z ichiga oladi. Ushbu qonun sohadagi davlat faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab qo‘ydi, yoshlarga oid davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini mustahkamladi. Ochiqlik, shaffoflik, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, uni amalga oshirishda yoshlarning o‘zi ishtirok etishi, ma‘naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi, shuningdek, o‘g‘il-qizlarning kamситilishiga yo‘l qo‘yilmasligi uning asosiy prinsiplari etib belgilandi.

Avvalgi qonundan farqli ravishda yangi qonun bilan bugungi kunning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mazkur siyosatning ustuvor yo‘nalishlari mustahkamlandi. Jumladan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar qabul qilinishi belgilandi. Yoshlarga oid

Voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida parlamentning Bola huquqlari bo‘yicha vakili instituti ishlab turibdi. Uning asosiy vazifasi bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta‘minlashdan iborat. Bosh prokuratura tarkibida Voyaga yetmaganlar to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan nazorat qilish boshqarmasi tashkil etildi. Faoliyatining asosiy yo‘nalishi voyaga yetmaganlar to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi, shuningdek, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar tuzildi.

Bugun yoshlarga oid davlat siyosati doirasida qaysi masalalar dolzarb? Bizningcha, yoshlar huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashning huquqiy hamda tashkiliy mexanizmlari va kafolatlari qonunchilik yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yilishi kerak. Konstitutsiyamizning yangi tahririda ana shu huquq va erkinliklarni ta‘minlaydigan qator prinsiplar hamda normalar mavjud. Lekin ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta‘minlash, mukammal ishlab turuvchi



davlat siyosatini amalga oshiruvchi hamda bu jarayonda ishtirok etuvchi organlarning vazifalari va vakolatlari, shuningdek, javobgarligi aniqlashtirildi. Fuqarolik jamiyati institutlarining dasturlarni ishlab chiqish hamda ijro etishdagi roliga oid huquqiy mexanizmlar belgilandi.

2025-yilgacha O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirishga doir “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Jismoniy sog‘lom hamda ma‘naviy jihatdan barkamol yigit-qizlarni tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda yordam ko‘rsatish, huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularni mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlarga jalb etish konsepsiyaning ustuvor jihatdagi sifatida belgilandi. Buning uchun yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning yagona mezonlari, shuningdek, yoshlarga oid siyosatni baholashning milliy indeksi joriy etildi.

mexanizmi bo‘lishi zarur. Bunga konstitutsiya-viy huquqlarni amalga oshirishning aniq mexanizmi va tartib-taomillari, shart-sharoitlari hamda kafolatlari yordam berishi mumkin.

Yoshlarga oid siyosatni samarali amalga oshirish uchun ularning talab va ehtiyojlarini inobatga oluvchi yangicha yondashuvlar lozim. Mazkur siyosatga doir vazifalarni birgalikda hal etish usulini shunday yondashuvlar sirasiga kiritish mumkin. Bu jarayonda yigit-qizlar natijalarni baholashda ekspert sifatida ishtirok etadi. Yoshlarga oid siyosatni yigit-qizlarning bunday ishtirokisiz samarali ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi. O‘z navbatida, uyushmagan yoshlar bilan ishlash masalalariga alohida e‘tibor qaratish kerak. Masalan, Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan amalga oshirilayotgan Street Law volontyorlik loyihasi doirasida talabalar interaktiv usullar yordamida maktab o‘quvchilariga kundalik turmushda zarur bo‘ladigan huquq asoslarini o‘rgatmoqda.

Voyaga yetmaganlar bilan ijtimoiy-huquqiy ish olib boruvchi klasterlarni tashkil etish mazkur yo‘nalishdagi yana bir qadam bo‘lar edi, deb hisoblaymiz. “Oila — mahalla — maktab — mustaqil hayot” tamoyili bo‘yicha fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish asosida tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan tizimli ravishda ishlarni tashkil etishning ushbu modeli yetarlicha ijobiy natija berishi mumkin.

Yoshlar mamlakatimiz kelajagidir. Aynan ular istiqbolida hayotiy muhim qarorlarni qabul qilishi kerak. Zero, yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyotga ko‘maklashish borasida cheklanmagan salohiyatga ega bo‘lgan ijobiy kuchlardan biridir. Ular yangiliklarni tez o‘zlashtirib oladi. Shu sababli O‘zbekistonda endi kurtak yozayotgan demokratik qadriyatlar aynan yoshlar tomonidan faol ravishda o‘zlashtirib olinmoqda. Bu yangi avlod rahbarlari mamlakatni zamonaviy usullar, nuqtayi nazarlar va qadriyatlardan kelib chiqqan holda boshqarishiga umid bag‘ishlaydi.

Nuqtayi nazar



DADIL ODIMLAR katta maqsadlarga erishishimizda asos bo‘lmoqda



Tursunboy FAYZULLAYEV, Namangan davlat universiteti professori, siyosiy fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

2023-yil mazmun-mohiyati bilan vatanimiz tarixida alohida e‘z qoldirdi, yangi O‘zbekiston yili sifatida esda qoldi. Chunki o‘tgan yili yurtimizda bo‘lgan siyosiy voqealar, jumladan, xalq bilan bamaslahat tarzda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilinishi, muddatidan ilgari Prezidentlik saylovining yuksak uyushqoqlik, jipslik bilan o‘tkazilgani, xalqning og‘irini yengil qilish, turmushini yanada yaxshilash borasidagi ishlar bunday

o‘z uyiga, ta‘bir joiz bo‘lsa, “o‘z vatani”ga ega bo‘lishiga katta imkoniyat yaratdi. Yurtdoshlarimizning hayotidan rozi bo‘lib yashashiga zamin hozirladi.

Xalqparvar siyosatning yorqin ko‘rinishi sifatida “mahallabay” ishlash tizimi yildan-yilga rivojlanib borayotganini ham aytish mumkin. “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” yuritilayotgani aniq, manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bu jarayonda ijtimoiy adolat mezonlariga amal qilish, odamlarning hayotidan rozi bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Obod mahalla” dasturi asosida har yili o‘nlab, yuzlab mahallalar qiyofasi tubdan o‘zgarib, shaharmonand ko‘rinishga keltirilmoqda.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligi haqida gapirganda, boshqa sohalar qatori yoshlar tarbiyasiga katta e‘tibor qaratilayotganini ta’kidlash joiz. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida ham yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha qator vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz siyosatida yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, iste‘dod va qobiliyatini yuzaga chiqarish, hayotda, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta‘minlashga ham alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bilan insonning sha‘ni, qadr-qimmatini himoya qilish, erkin va farovon yashashi uchun munosib sharoit yaratish davlat tomonidan kafolatlandi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining birinchi yo‘nalishi har bir insonning,

ijodkorlar-u san‘atkorlar nomini tilga olib, ular qoldirgan ilmiy, badiiy merosni yoshlarga o‘rgatish bo‘yicha qimmatli maslahat va tavsiyalar beradi. Shunga asosan, Alouddin Abubakr Kosoniy, Is‘hoqxonto‘ra Ibratning ma‘naviyat, ilm-ma‘rifat yo‘lidagi xizmatlarini ulug‘lash, ularning nomini abadiylashtirish borasida qator ishlar bajarildi. Ushbu boy merosni o‘rganish natijalari mahalliy matbuot va televideniye orqali yoshlarga yetkazilmoqda. Qadim tarixga ega Axsikentni obod qilish, bu yerda ochiq osmon ostidagi muzey tashkil etish, viloyatning turizm salohiyatini kuchaytirish, keng ko‘lamli bunyodkorlik, obodonlashtirish va ko‘kalmonzorlashtirish borasidagi ishlar ham e‘tiborga molik.

O‘zbekistonning dadil qadamlari haqida fikr yuritir ekanmiz, xalqimizning xohishi-irodasini, manfaatini o‘zida to‘la mujassam etayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat haqida aytish joiz. Zotan, keyingi yillarda dunyodagi barcha davlatlar, ayniqsa, yaqin qo‘shnilar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yaxshilangani ijobiy natijalar berayotganini jahon jamoatchiligi alohida e‘tirof etmoqda. Xususan, Prezidentimizning yaqinda Xitoyga rasmiy tashrifi ham g‘oyat samarali bo‘ldi. Birgina oliy ta‘lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator hujjatlar, jumladan, Namangan muhandislik-texnologiya va muhandislik-qurilish institutlari bilan Xitoy OTMLari o‘rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi. Mazkur kelishuvlar ikki davlat yoshlarining bilim va tajribasini oshirish, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Bunday hamkorlik Namangan viloyati misolida yuqori darajaga ko‘tarilganini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibida Xitoyga borib qaytgan viloyat hokimi Shavkatjon Abdurazzoqov o‘sha kunning o‘zida sektor rahbarlari, shahar va tuman hokimlari, iqtisodiyotga tegishli idoralar, tadbirkorlar vakillari ishtirokida kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazdi. Unda xorij investitsiyasi salmog‘ini yanada ko‘paytirish, Xitoy kompaniyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha vazifalar belgilab olindi.

Bugun hayotimizning tahlil qilinmagan yoki o‘zgartirish kiritilmagan biror sohasi, tarmog‘i, hududi qolmadi. Davlatimiz

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligi haqida gapirganda, boshqa sohalar qatori yoshlar tarbiyasiga katta e‘tibor qaratilayotganini ta’kidlash joiz. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida ham yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha qator vazifalar belgilab berildi.

deyishimizga to‘la asos beradi. Faqat bugina emas, jamiyat ma‘naviy hayotini tubdan o‘zgartirish, har bir ishni ilm, aql va ma‘rifat bilan hal qilish, odamlarda minnatdorlik kayfiyatini oshirish, avval inson manfaat, degan tamoyil hayotimizning kundalik qoidasiga aylanmoqda.

Odamlarni rozi qilish davlatimiz siyosatining tayanch nuqtasidir. Prezidentimiz faoliyatining dastlabki davridayoq “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”, degan olijanob g‘oyani ilgari surgan edi. O‘sha paytda buning ahamiyatini hamma ham birdek chuqur tasavvur qilolmagan. Davlatimiz rahbarining tashabbusi va sa‘y-harakati bilan vazirlar, deputat-u senatorlar, katta-kichik turli idoralar rahbarlari xalq ichiga kirishni, dardini eshitishni, muammolariga o‘sha joyning o‘zida yechim topishni o‘rgandi. Har bir viloyat, shahar va tumanda to‘rt sektor tashkil etilgani, Xalq qabulxonalari faoliyati, sayyor qabullar o‘tkazish yo‘liga qo‘yilgani, davlat xizmatlari markazlari ta‘sis qilinishi tez fursatda amaliy natija bera boshladi, odamlarda adolatga, davlatga ishonch paydo bo‘ldi.

Davlatning ijtimoiy siyosatni yanada kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratayotgani aholi farovonligini oshirish, kam ta‘minlangan, ehtiyojmand oilalar, nogironligi bor shaxslarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashda o‘z isbotini topmoqda. Masalan, shu qisqa vaqtda oldingi yillarga nisbatan besh-o‘n barobar ko‘p uy-joy qurildi. Bu minglab oilalarning



xususan, yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun sharoit yaratish, bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasalariga yuz foiz qamrab olish, maktablarda yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalardan, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish, ustoz va murabbiylarning jamiyatdagi obro‘sin oshirish, oliy ta‘lim muassasalariga akademik mustaqillik berish, ta‘lim-tarbiya sifatini tubdan yaxshilash, iste‘dodli talabalarning xorijdagi nufuzli oliygo‘hlarida ta‘lim olishiga imkoniyat yaratish ko‘zda tutilgani bilan ahamiyatlidir.

Davlatimiz rahbari har safar Namangan viloyatiga tashrifi chog‘ida shu hududdan yetishib chiqqan ulug‘ allomalar, buyuk

rahbari viloyatlarga tashrifi chog‘ida xalq bilan yuzma-yuz, ochiq, samimiy muloqot qilib, yurtdoshlarimizning dard-u tashvishini, o‘ylantirayotgan muammolarini, ma‘naviyatini oshirishga doir masalalarni o‘rganyapti. Ularning yechimini joyida, tegishli idoralar orqali hal qilib beryapti.

Bunday xalqparvar siyosat biz, ziyolilarni ilhomlantirib, butun xalqimizni yangi marallar sari ruhlantirmoqda. Shunday ekan, xalq ishonchiga munosib salmoqli ishlar aks etgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifa va maqsadlar mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishiga xizmat qiladi.





Hunardan rizqing unar

“7-sinf oʻquvchisiman. Toʻngʻich farzand boʻlganim bois, tuman markazidagi bozorga koʻp borardim. Bir kuni yarim qop sabzini orqalab yana bozorga yoʻl oldim. Oʻzimni katta odamlardek his qilib, sabzini peshtaxtaga joylar ekanman, atrofdagilar bilan soʻrashgan boʻldim. Shunda bir chol yonimga kelib, “Oʻgʻlim, juda dadil yigit ekansan, qaysi qishloqdansan?” deb soʻrab qoldi. Oʻgʻiloy enam doim qishlogʻimizni hamma taniydi, oʻsha mashhur ming qoʻyli jaloyir urugʻidanmiz, deya koʻp tayinlagani bois, “Jaloyirdanman”, dedim faxr bilan. Shunda chol “Qayerda ekan bunday qishloq?” dedi hayron boʻlib. Bu gap menga shunchalar taʼsir qildiki, bozordan toʻgʻri enamnikiga bordim-da, eshikdan kira solib bor ovozda alam bilan gapira boshladim: “Enaaa, enaaa, nega yolgʻon gapirardingiz? Qishlogʻimizni hech kim tanimas ekan-ku...”.

Jaloyirlik TOHIR kulol: “YURTIMGAGA SOZ TUPROQ, UYGʻOQ QALB BILAN QOʻSHILSAM DEYMAN...”

Jadid bobolarimiz siymosi va oʻtli soʻzlarini tarixga muhrlayotgan muzey-ustaxonaga sayohat

Gaplarimni eshitgan enam ancha oʻylanib qoldi. Keyin asta jilmayganicha boshimni silab, “Bolan, agar qishlogʻingni odamlar tanishini, tan olishini istasang, sen oʻqishing, ziyoli boʻlishing, tanilishing kerak. Bu yerdagi odamlarning koʻplari dehqonchilik bilan shugʻullanadi. Ularni hamma ham taniyvermaydi-da”, dedi. Shartta oʻrimdan turdim-da, “Mana koʻrasiz, enajon, men qishlogʻimiz — Jaloyirni butun dunyoga tanitaman!”, deya yugurib koʻchaga chiqib ketdim”.

Fargʻona viloyatining Rishton tumaniga kirib borar ekanmiz, “Doʻstlik” ordeni sohibi, Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi va “Hunarmand” uyushmasi aʼzosi Tohirjon Haydarov aytib bergan ana shu bolalik voqeasi esimizga tushdi. Bugun Tohir kulol muzey-ustaxonasini izlab kelayotgan nafaqat yurtdoshlarimizning, balki xorijlik sayyohlarning-da keti uzilmaydi. Demak, 14 yoshli Tohirjonning orzusi amalga oshib, Jaloyir qishlogʻini dunyo taniyapti!

— Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, xush kelibsizlar, qadamlaringizga hasanot! — deydi bizni koʻrgan usta kulol peshonasiga bogʻlangan oppoq chit roʻmolini qoʻliga olar ekan, quvonchdan yuzlari yorishib. — Sayyoh-mehmonlarimizga hozirgina tandirdan chiqqan yangi ishimni koʻrsatib turgan edim. Nima desanglar denglar-u, oddiy kulol boʻlsam ham Prezidentimizning “Bu kimdadir yoqadimi, yoʻqmi, xalqimiz jadid bobolarimiz boshlab bergan yoʻldan ogʻishmay borishi kerak. Chunki ularning gʻoya va dasturlari yangi Oʻzbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uygʻun va hamohangdir”, degan soʻzlarini eshitganimdan buyon oʻzimni qoʻyarga joy topolmadim. Negadir yurak-yuragimdan bir tuygʻu toshib kelaverdi. Oxiri boʻlmadi, men mana shu soʻzlarni igna bilan sopolga oʻyib yozdim. Toki xalqni uygʻoqlikka, jasoratga chorlaydigan bu soʻzlar mangu yuragimizga muhrlansin, dedim.

Toʻgʻrisi, ortiqcha iltifotni xush koʻrmaydigan jaydari va chapani kuloldan bunday gaplarni eshitib, avvaliga biz ham hayron boʻldik. Keyin hovli yuziga qator qilib terilgan laganlardagi jadid bobolarimiz siymolari va ularning oʻtli misralariga koʻzimiz tushar ekan, kulolning oʻzi taʼriflaganidek, “goʻyo tanamizda chumoli



oʻrmlagandek boʻldi”. Oʻz-oʻzidan bizning-da yuragimiz oʻrtana boshladi: “Nega, qachon oʻz millatimiz oʻtmishi, kelajagi va buguni bilan bogʻliq soʻzlar va voqealarga nisbatan solvuqonlik bilan qaraydigan insonlarga aylanib yurardik? Nega shu soʻzlarni har kuni esga olmaymiz?”. — Usta kulol Tohirjon Haydarovning muzey-ustaxonasiga oʻquvchilarimni tez-tez olib kelaman, — deydi Qoʻqon shahridagi 15-umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchisi Nigoraxon Hasanova. — “Jadidlar” ruknidagi yangi ishlarini telegram kanaliga joylashtirganidan soʻng oʻquvchilarim tezroq boraylik, deb holi jonimga qoʻymadi. Abdulhamid Choʻlpon hayoti va ijodiga bagʻishlangan darsimni mazkur uy-muzeyda ochiq havoda oʻtkazdik. Abdulla Qodiriy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Isʼhoqxon Ibrat, Usmon Nosir, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi bobolarimizning sopol laganlarga igna bilan chizilgan, millatimiz erki va ozodligi borasida aytgan soʻzlarini bolalar qoʻllarini harflar ustiga yugurtirib oʻzgacha mehr bilan oʻqishdi. Hatto bir oʻquvchim “Ustoz, jadid bobolarimizning soʻzlari yozilgan laganni bagʻrimga bossam, qalbim yorishib ketgandek boʻlayapti”, deganida koʻzlarimga yosh keldi. Bizga shunday ajoyib muhitni yaratib bergan mohir ustadan juda minnatdormiz.

Muzeyga kelgan odam borki, qoʻliga loy olib kulol dastgohini bir aylantirib koʻrgisi, oʻz barmoqlari bilan yangi buyum yaratgisi keladi. Bu jarayon, yaʼni koʻz oʻngingda yaralguvchi moʻjaz buyum qalbgaga oʻzgacha sehr va huzur bagʻishlaydi. Goʻyo tomirlariga oqayotgan qon tafti dastgoh charxpalagida iylanib, ana shu yaralmish buyum ranglari va shakliga singib ketayotgandek boʻladi...

— Turmush oʻrtogʻim Maryamxon bilan kulollik buyumlariga juda qiziqamiz, — deydi Erondan kelgan sayyoh Farzod Gʻafforzoda. — Ijtimoiy tarmoq orqali Tohir kulol muzey-ustaxonasi haqida oʻqiganimizda, toʻgʻrisi, juda hayajonlandik. Chunki boshqa yurtlarga borganimizda faqat muzeylarni tomosha qilish imkoniga ega boʻlganmiz. Mazkur muzey-ustaxonada esa jannatga kelib qolgandekmiz. Tohir kulol oʻz qoʻllari bilan oʻchoqda damlab bergan palovning mazasini aytmasizmi... Birgalikda muzeyda istaganimizcha Tohirjon shimiz, kulollik buyumlari tayyorlanishini oʻz koʻzimiz bilan koʻrishimiz mumkin ekan. Hatto oʻz qoʻllarimiz bilan koʻzachalar ham yasadik. Meni taʼsirlantirgan yana bir voqea shuki, Tohir aka nafaqat kulol, balki shoirtabat

inson ekan. 200 yillik tarixga ega boʻlgan Qoʻqon aravani bizga soting desak, dunyodagi eng katta mablagʻni tortiq etsangiz ham sotmayman, chunki bu arava ajdodlarimizga tegishli, deya ona yurt haqida bir sheʼr oʻqidi. Qaniydi shunday vatanparvar va millatparvar insonlar bu dunyoda koʻp boʻlsa...



Qahramonimiz muzey-ustaxona ochish tashvishiga tushganida unga tuman markazidan yer ajratmoqchi boʻlishgan. Shunda usta kulol muzey uchun joyni oʻzi bolaligidan yalangoyoq yugurib oʻsgan, mehnat qilgan dalaning qoq oʻrtasidan tanlagan. Bu maskanning oʻziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, devorlar oddiy loysuvqondan chiqarilgan, xolos. Tohir aka hatto xonalar va derazalarga ham ortiqcha hech qanday pardoz berilishiga yoʻl qoʻymagan.

— Bir kuni xorijdan juda badavlat sayyoh keldi, — deydi jilmayganicha Tohirjon Haydarov. — Salobat bilan “eng qimmatbaho mahsulotingizni aytgan narxingizga sotvolaman”, deganday gap qildi. Men muzeyimda 3 ta qimmatbaho asarim borligini, ularni hech qanday boylikka alishmasligimni, bu

asarlar millatimizga, kelajagimizga tegishli boylik ekanini aytdim, ensasi qotgandek boʻldi. Indamadim. Mehmonni devor oldiga chaqirdim-da, mana bu loysuvuq devomi koʻryapsizmi, dedim. Siz bilan men ham bir kuni shunday tuproqqa aylanamiz. Shu bois, men har bir insonni oʻz aka-ukamdek koʻraman. Ezgu niyatli insonlarning tuprogʻi ham toza boʻladi. Agar soz tuproq boʻlsangiz, sizni kulol sanʼat asariga aylantiradi. Agar kulolga roʻbaroʻ kelmasangiz, sizni somonga aralashtirib devorga urvorishadi, dedim. Gaplarimni eshitgan tarjimon ham, oʻsha boyvachaga ham nima demoqchi boʻlganimni anglashdi shekilli, birdaniga jiddiy tortib, ranglari oʻzgarib qoldi. Bir oz sukut saqlaganidan soʻng ikkalasi ham meni quchoqlab, “Ogʻayni, rahmat sizga haqiqatni gapirganingiz uchun. Juda oddiy va samimiy inson ekansiz”, deyishdi.

Qishin-yozin odam arimaydigan muzey koʻp-lab ijodkorlarning ham sevimli goʻshasi. Yangi sheʼr yozgan shoir ham, kitobini nashr ettirgan yozuvchi-yu musiqiy asar yozgan kompozitor ham Tohirjon akaga dil yorgisi kelib qoladi. Shu bois, muzeyda vodiy ijodkorlarining “Dilkash davralar” deb nomlangan mushoira va munozara kechalari tez-tez oʻtkazilishi anʼanaga aylangan. Bu gal ham qishki mushohiraga tayyorgarlik qizgʻin kechmoqda.

— Avvalgi mushoiramiz kuz faslida muzeydagi anorlar rosa yetilib pishgan palada boʻlgan edi, — deydi Uchkoʻprik tumanidan kelgan shoira Shodiya Umrzoda. — Tabiatning oʻziga xos manzarasi va ijodkor doʻstlarimizning yoniq misralaridan ilhomlanib, muzey daftriga yangi sheʼr yozib qoldirgan edim. Mushoiramiz avvalida Tohirjon kulolning yangi asarlari namoyishi boʻlib oʻtdi. Oʻsha sheʼrimni usta kulol laganga igna bilan yozibdi. Juda taʼsirlanib ketdim. Bu ajoyib sopol laganni onajonimga, hamkasblarim va oʻquvchilarimga koʻrsatmoqchiman.

Ijodiy kechada eʼtirof etilgan yana bir yangilik shuki, Tohir kulol haqida dramaturg Ilhom Oʻrmon “Kulol orzusi” nomli yangi drama yozdi. Ishtirokchilar eʼtiroficha, dramada bugungi oʻzbek hunarmandi yuragidan kechayotgan oʻylar, iztiroblar, orzular oʻziga xos talqinda ifodalangan.

— Dastlab drama haqida eshitganimda oddiy kulol hayot mezonlari qiyomiga yetkazib ifodalab bera olinammi, deya shubhlangan edim, — deydi rejissyor Obidjon Abdullayev. — Muzeyda Tohirjon aka bilan suhbatlashib, hayot tarzini, mulohazalarini tinglab, drama bilan tanishar ekanman, usta kulolning qanchalar oʻziga xos ijodkor ekaniga va bu “Kulol orzusi”da toʻliq aks ettirilganiga guvoh boʻldim. Men bu sahna asariga jiddiy kirishishim, oʻzbek kulolining oʻziga xos hayot tarzini, haqiqatlarini nafaqat Oʻzbekistonga, balki butun dunyoga koʻrsatishim zarurligini angladim.

Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Fargʻona viloyati boʻlimi rahbari Dilshoda Halimjonova bu galgi mushoira ham juda fayzli oʻtganini taʼkidlar ekan, Tohirjon Haydarov 2000-yilgacha respublikadagi eng taniqli jurnal — “Mushtum” bilan ijodiy hamkorlik qilgani borasida soʻzladi. U chizgan karikaturlar 1970-yillardan boshlab chop etila boshlagan. Tohirjon Haydarov har safar tahririyatga borganida jurnal bosh muharriri Neʼmat Aminovning xonasida boʻlib oʻtadigan koʻplab ijodiy suhbatlar va mushohiralarga guvoh boʻlgan. Usmon Azim,



Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid kabi el sevgan ijodkorlar bilan tanishib, suhbatlashgan. Muhammad Yusuf “Parjining eng goʻzal restoranlarin bitta tandiriga alishmasman men”, degan mashhur misralarini ham ilk bora oʻsha davrada shoir doʻstlariga oʻqib berganini hayajon bilan eslaydi.

— Oʻzim oʻrta maʼlumot olganman, xolos, — deydi Tohirjon aka. — Jumalga xilma-xil mavzularda karikaturlar chizib berardim. 1985-yillardan keyin paxta yakkahokimligi, SSSRning qulashi, Orol dengizi qurishi, oʻsha paytdagi rahbarlarning amal kursisidan tushganidan keyingi holati haqida oʻnlab siyosiy karikaturlar chizganman.

Bir kuni jurnal bosh muharriri Neʼmat Aminov Tohirjon Haydarovga “Uka, hushyor boʻl, karikaturlaring sabab dushmanlaring ham koʻpaydi. Endi iloji boʻlsa, siyosiy karikaturlar chizmay tur”, deydi. Shunda yosh rassomning boshi qotib qoladi. “Endi nima qilaman, qanday qilsam ichimdagi ijodga boʻlgan ishtiyoqni soʻndiraman”, deb oʻylay boshlaydi. Kunlarning birida, 1987-yil edi oʻshanda, Tohirjon bir yumush bilan Oʻzbekiston xalq ustasi Nabijon Qodirovning kulollik ustaxonasiga borib qoladi. U yerdagi sopol buyumlarni koʻzdan kechirar ekan, unda ham kulollikda oʻzini sinab koʻrish istagi tugʻiladi.

Toʻgʻrisini aytaman, garchi rishtonlik boʻlsam-da, 25-26 yoshimgacha bir dona ham kulollik buyumi yasamagan edim, — deydi Tohirjon aka. — Oʻzimni karikaturchi rassom bilardim va umrimning oxirigacha faqat qogʻozga karikatura chizaman, deb oʻylardim. Nabijon Qodirovga kulollikka qiziqib qolganimni, agar ustozlik qilsa, bu hunarni jon deb oʻrganishimni aytdim. Oʻzim tayyorlagan sopol buyumlarga ignada miniatyuralar, portretlar chizib, sheʼrlar yoza boshladim. Shu tariqa Rishton kulollik maktabiga yangi yoʻnalish olib kirdim.

Ot izini toy bosar, deydlar. Tohir kulol qachon ustaxonaga yoʻl olsa, darhol ikki yonida ikki qanoti — oʻgʻillari Elbek va Temurbek paydo boʻladi. Usta kulolning har bir harakatini zimdan kuzatishga, aytilgan vazifani ortigʻi bilan bajarishga intiladi. Oʻziga xos sanʼat asari dunyoga kelishi uchun har bir hunarmand oʻsha asarga qalb qoʻrini bagʻishlashi zarur.

Koʻhna hunarimizning yangi yoʻnalishini tez ilgʻay olgan yosh kulol Temurbekning izlanishlari eʼtiborga olinib, 2021-yilda u “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

— Esimni tanibmanki, dadam bizga yurtimiz tarixi, ulugʻ ajdodlarimizning shajaralari haqida juda koʻp gapiradi, — deydi Temurbek. — Temuriy shahzodalar, Boburiylar shajarasi haqida soʻzlash bilan birga, ular amalga oshirgan ulugʻ ishlarni ham erinmay hikoya qilib beradi.

Millatimizning chin farzandi boʻlishingiz uchun tarixni, maʼnaviyatni, qadriyatni anglashingiz juda zarur, bolalarim, deya bot-bot taʼkidlaydi. Uymizdagi kutubxonada 2 mingdan oshiq kitob jamlangan. Har kuni maktab oʻquvchilaridan tortib, nuroniy otaxonu momolarimizgacha kitoblarimizni oʻqish uchun kirib keladi. Shunday paytlarda dadamning koʻzlaridagi quvonch va yolqinni koʻrib, juda hayratlanaman. Shunday insonning farzandi ekanimdan faxrlanaman.

Ayni paytda qahramonimiz oʻz farzandlari bilan yana bir anʼanani yoʻlga qoʻydi. 2023-yildan boshlab Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida hamda Fargʻona viloyatining koʻplab maktablarida ota-bola Haydarovlarning kulollik ustaxonalari tashkil etila boshladi.

— Kuni kecha Prezidentimiz raisligida ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga bagʻishlab oʻtkazilgan yigʻilishda maktablarda oʻrgatish mumkin boʻlgan 50 ta kasb-hunar roʻyxati tuzilib, har biri boʻyicha oʻquv va amaliyot dasturlari ishlab chiqilishi aytiladi, — deydi Tohirjon Haydarov. — Bu gaplar ayni koʻnglimizdagi boʻldi. Endi maktablarda ustaxonalar tashkil etilib, “kasbiy taʼlim ustasi” lavozimi joriy etilar ekan. Men har gal maktablar va kollejlar borganimda farzandlarimizning milliy hunarlarimizga oʻzgacha qiziqish bilan qaraganiga guvoh boʻlganman. Yoshlikda oʻrgatilgan hunar esa toshga oʻyilgan naqsh kabi. Oʻgʻil-qizlarimiz qaysi kasbni tanlamasin, qoʻlida hunari boʻlsa, har qanday mashaaqat va qiyinchilik oldida sinib qolmaydi.

Darhaqiqat, qahramonimizning oʻzi ham 1991-yilda Rishton tumanidagi Yoshlar Klubida boʻlib oʻtgan koʻrgazmasini katta hayajon bilan eslaydi. Oʻshanda mashhur insonlarning sopol laganlarga chizilgan shajarlari ishtirokchilarda juda katta taassurot qoldirgan edi. Mazkur koʻrgazmada Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad ham ishtirok etgan, bir yozidan ajoyib sanʼat asarlarini koʻzdan kechirayotib, “Tohirjon, bolam, sen kulollikda yangi ish boshlashing. Endi seni “Tohir sopol” deb ataymiz”, deya lutf qilgan edi. Shunda mashhur qiziqchi va soʻz ustasi Muhiddin Darveshov “Baxtingiz bor ekan, sizga xalq yozuvchisining oʻzi nom qoʻyib berdi-ya”, degan soʻzlarini Tohirjon Haydarov faxr bilan eslaydi.

Maqola avvalida taʼkidlaganimizdek, Tohir kulol juda hushyor va sergak inson. Ayniqsa, oʻtgan yil soʻnggida Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat kengashining Prezidentimiz raisligida boʻlib oʻtgan yigʻilishida oʻrtaga tashlangan mulohazalarni ham juda katta eʼtibor bilan tingladi. Hatto tinglaganlariga qanoat qilmay yuragiga tekkan soʻzlarni va belgilangan muhim vazifalarni sopol laganlarga igna bilan yozib, ming daraja haroratdagi olov bilan pishirdi.

Muzey-ustaxonaga kelganiga uch kun boʻlgan amerikalik Juliya xonim tandirdan endigina chiqqan bu rangin lagan va koʻzalarni koʻzdan kechirayotib, bunday savol berdi:

— Aytinch, kulol janoblari, bu mahsulotlaringiz quyoshda shunchalar tovlanib turishi uchun ularga qanday boʻyoq surgansiz? Bu sayqal necha yil saqlanib turadi oʻzi?

— Juliya xonim, sayqal yuritimning soz tuprogʻi va yuragimdan chiqqan alanga bilan tovlanib turibdi. Bu boʻyoq shunday sirli, agar ushbu buyum sinib ketmasa, to qiyomatga qadar quyoshda tovlanib turaveradi. Milliy qadriyatlarimizning asrori shundaki, maʼnaviyatimiz juda chuqur maʼrifiy ildizlardan, ummonlardan suv ichgan. Men bir oddiy kulol boʻlsam-da, har daqiqada ona yurtimga soz tuproq va uygʻoq qalbim bilan qoʻshilsam deyman... “Men oʻzbekman”, degan faxrli tuygʻudan har lazha ham chuqur iztirobga tushaman, ham yetti osmon qadar yuksalaman. Chunki men uygʻoq insonman.

Jaloyirlik jaydari va chapani Tohir kulolning mana shu samimiy soʻzlarini bugungi uchrashuvimizning xulosasi, deb tanladik. Zero, yurakdan chiqqan soʻzgina yuraklarni manzil etgusidir!

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 415.

9800 nusxada bosildi.
Oʻset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Oʻzbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar koʻchasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manziliimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

Oʻza yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05